

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

KASB TA'LIM FAKULTETI

**TASVIRIY SAN`AT VA MUXANDISLIK GRAFIKASI
KAFEDRASI**

«Qush va hayvonlar tasvirini ishlash metodikasi»
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: 5110800-Tasviriy san`at
va muxandislik grafikasi yo`nalishi
bitiruvchisi 4-bosqich talabasi Alijonova
Sevara Mirzoxid qizi

Rahbar: Tasviriy san`at va
muxandislik grafikasi kafedrası dotsenti
Jabbarov Botirsher G'ulomovich

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.
Kafedraning _____-sonli bayonnomasi. " _____ " _____ 2019 yil

Namangan – 2019

Mavzu: Qush va hayvonlar tasvirini ishlash metodikasi.

Kirish.

I bob. O`rta umumta`lim maktablari tasviriy san`at darslarida qush va hayvonlar tasvirini ishlash mashg`ulotlari.

- 1.1. Animalistik janr va uni tasviriy san`atda tutgan o`rni.
- 1.2. Boshlang'ich sinflarda qush va hayvonlarni tasvirini ishlash.
- 1.3. V-VII sinflarda qush va hayvonlar tasvirini ishlashga o`rgatish.

II-bob. O`quvchilarga qush va hayvonlar tasvirini soddalashtirgan tarzda tasvirlashga o`rgatish.

- 2.1. Parandalar tasvirini ishlashning o`ziga xos tomonlari.
- 2.2. Uy hayvonlari tasvirini ishlash metodikasi.
- 2.3. Yovvoyi hayvonlar tasvirini ishlash usullari.

III-bob. Tajriba-sinov darslarini tashkil qilish.

- 3.1. Tajriba-sinov dars ishlanmalari
- 3.2. O`rta umumta`lim maktablarida qush va hayvonlar tasvirini ishlash bo`yicha tajriba-sinov darslarini tashkil qilish.
- 3.3. Erishilgan yutuq va kamchiliklarni taxlil qilish.

Xulosa.

Ilova.

Foydalanilgan adabiyotlar.

KIRISH.

Keyingi vaqtda, barcha sohalarida bo'lgani kabi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida ham ko'pgina ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yangi turdagi tasviriy san'at yo'nalishidagi pedagogika kasb-hunar kollejlarida olib boriladigan mutaxassislik fanlar va yosh pedagog-rassomlar tayyorlash bo'yicha Davlat Ta'lim standartlari, yangi o'quv rejalari, dasturlari tuzilib, o'quv qo'llanmalar, darsliklar va uslubiy tavsiyalar yaratilyapti.

Respublikaning tayanch oliy o'quv yurtlari va ilmiy tekshirish institutlarida yoshlarga milliy san'at namunalarini o'qitishning ilmiy asoslangan yangi shakl, usullari ishlab chiqilmoqda hamda yoshlarni badiiy va estetik jihatdan tarbiyalab, voyaga etkazish borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilayotir.

Yoshlarni jahon andozalariga javob beradigan barkamol etib tarbiyalashda tasviriy san'at, xususan, qalamtasvir fani alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarida o'qitilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo'lishini taqozo etib, pedagoglar, olimlar va rassomlar zimmasiga yuksak mas'uliyat yuklaydi.

Yoshlarga yuqori darajada ta'lim-tarbiya berish — bo'lajak rassom-pedagogdan tasviriy san'at sohasida amaliy malakalarini yuqori darajada egallagan bo'lishdan tashqari, psixologiya sohasida ham etarli ma'lumotga ega bo'lishni taqozo etadi. Albatta, o'quvchi ta'lim-tarbiya berish borasidagi asosiy bilimlar — pedagogika va psixologiyani chuqur o'zlashtirishi lozim. Lekin umumtadim maktablari, kasb-hunar kollejlarida o'tkazilgan tajriba, kuzatish va xulosalar shuni ko'rsatadiki, yosh o'qituvchi o'zining pedagogik faoliyatida, nafaqat, psixologiyaning umumiy tomonlariga e'tibor berishi (yoshlar psixologiyasini o'rganib, to'g'ri ta'lim-tarbiya berishi, ularing individual xususiyatlarini o'rganishi, o'quvchiga muvofiq keladigan tarbiya usullarini izlab topishi), balki, turli amaliy mashg'ulotlar jarayonida, xususan, tasviriy faoliyat va yoshlar tarbiyasida uni amalda qo'llashi joizdir. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga mutaxassislik fanlarini keng ko'lamda

o`qitish, xususan, o`quv-amaliy hamda nazariy mashg`ulotlari orqali ularning ijodiy tasavvurlarini o`stirish va shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa, barcha mutaxassislik fanlaridan yaratilgan o`quv adabiyotlarining chuqur va mazmunli bo`lishini taqozo etadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan kunlaridanoq barkamol insonni tarbiyalash ijtimoiy hayotimizning tub masalalaridan bo`lib qoldi. Chunki, barkamol insonni tarbiyalash, eng avvalo, yuksak ma`naviyat yaratish bilan bog`liq bo`lib, bu ma`naviyat jamiyatning, millatning yoki shaxsning ichki dunyosi, ruxiy kechinmalari, ilmiy tafakkuri, aqliy qobiliyati va idroki mujassamlashgan kishilar va ularning yashaydigan joyini ifoda etadi. SHu boisdan hozirgi zamon ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining, ayniqsa, adabiyot va san`atning asosiy harakatga keltiruvchi omilida tasviriy san`atning ahamiyati kattadir. Yoshlarni tarbiya qilish, komil inson haqidagi ideal tafakkur yo`nalishi, zamondoshlarimizning turmush tarzini yaxshilash, ularning haqqoniy siymosini yaratish san`atqorlar, rassomlar oldida turgan asosiy g`oyaviy-badiiy vazifa bo`lib qolmoqda. Qalamtasvir predmeti pedagogika yo`nalishidagi o`rta maxsus kasb-hunar kollejlari o`qitiladigan barcha maxsus fanlarning asosi hisoblanadi va ular o`rtasida bevosita bog`liqlikni ta`minlaydi.

Qalamtasvir borasida etarli bilim va malakalarni egallamay turib, talaba kompozitsiya, rangtasvir, haykaltaroshlik, xalq amaliy san`ati va shu kabi boshqa mutaxassislik fanlarini yuqori darajada o`zlashtira olmaydi. Hozirgi vaqtda o`rta maxsus, kasb-hunar o`quv yurtlarida "Qalamtasvir" fanini o`qitishning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslangan yangi yo`li, shakli, mazmuni hamda usullarini takomillashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Tasviriy san`atning nazariyasini muntazam o`rganish, ushbu ta`limni muvaffaqiyatli o`zlashtirishning asosi hisoblanadi. Rus rassomi va pedagogi D.N. Kardovskiy aytib o`tganidek: "San`atni o`rganayotganlar tasvirlashning

yo'llari va usullari, ya'ni narsalarning shakli, nisbatlari, rangi, yorug'ligi, xususiyati va harakat qonuniyatlariga bo'ysunishga majburlar".¹

Tasviriy san'at mashg'ulotlari Oliy ta'lim muassasalarida, o'rta maxsus kasb-hunar o'quv dargohlaridagi barcha o'quv fanlari, ayniqsa, psixologiya bilan keng aloqadadir. Buyumlarni o'ziga qarab tasvirlash, mavzuli kompozitsiya ishlash yoki tasviriy faoliyatning boshqa yo'nalishlarida o'quvchilarning ijodiy tasavvurini shakllantirish psixologik jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda bo'ladi.

O'zbekistonda yangi manaviy-g'oyaviy yo'nalishlarning shakllanishi o'z navbatida, zamonaviy san'atning barcha sohalariga samarali ta'sir etib, ijodiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy tafakkur rivojini yanada jadallashtirdi. Tarixiy, madaniy va ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarning keng qatlamlarini qayta idrok etish g'oyalari, yangilanish tamoyillari me'morlik, tasviriy va amaliy bezak sohalarida, musiqa va tomosha san'atlari tizimida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov komil inson tarbiyasiga katta e'tibor qaratib "Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz"²-deganlar. Haqiqatdan ham ongi yuksak inson tarbiyasiga katta e'tibor qaratgan davlatgina buyuk bo'ladi. Bu ishni amalga oshirish masalasiga hamma birdek mas'ul, lekin bu ishda eng asosiy mas'uliyat ustoz-murabbiylar zimmasidadir.

Tasviriy san'at inson ongiga tezda ta'sir etib, unda ezgu-xislar uyg'otadigan, ma'naviy olamini boyitadigan san'at turlaridan biridir. SHu bilan birga, tasviriy san'at inson shaxsining shakllanishi va kamolga etishiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir. Shuning uchun ham tasviriy sanat o'qituvchisi o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish uchun o'z ustida tinimsiz izlanishi, o'qitishning yangi texnologiyalaridan, axborot texnologiyalaridan

¹ Д.Н. Кардовский. Воспоминания, статьи, письма. М., 1960, 128-бет.

² Ислон Каримов. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т.; 1998. 6-бет.

samarali foydalanishi lozim bo`ladi. Insonni, uning didini, extiyojini, milliy o`ziga xosligini hisobga olish, axlokiy kamol toptirish xalq hayotining ham moddiy, ham ma`naviy jihatini qamrab oluvchi badiiy tizim, tasviriy san`at uchun zarur bo`lgan badiiy maktab, uslub tushunchasi bilan belgilanadi. Xalk didini, uning hayotiy qadriyatlar, go`zallik to`g`risidagi tasavvurlarini ifodalovchi va mustahkamlovchi usullarning muayyan tizimi ishlab chiqildi.

Jumladan o`rta umumta`lim maktablarida tasviriy san`at o`quv predmeti o`qituvchisi o`quvchi –yoshlarni san`atga bo`lgan qiziqishlarini yanada oshirish ustida tinimsiz izlanishlari olib borishi talab qilinadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev tomonidan 2019 yil 19 mart kuni o`tkazilgan videoselektor yig`ilishida yoshlar ma`naviyatini yuksaltirish va ularning bo`sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo`yicha 5 ta muhim tashabbus e`lon qilindi. Ushbu tashabbusning birinchi bandi “YOshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san`atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste`dodini yuzaga chiqarish”ga qaratilgan.

Ushbu tasabbusga labbay deb javob bergan har bir tasviriy san`at o`qituvchisi nafaqat tasviriy san`at darslari samaradorligini oshirish, balki qo`shimcha to`g`arak mashg`ulotlari tashkil qilib o`quvchi-yoshlarni tasviriy va amaliy san`atga bo`lgan qiziqishlarini yanada oshirishi shart. Tasviriy san`at orqali o`quvchilarni Ona Vatanga, tabiatga, borliqqa bo`lgan muhabbatini oshirish, kattalar mehnatini qadrlash, bo`sh vaqtlarini unumli tashkil qilish muxim masalalardan hisoblanadi.

Umum o`rtata`lim maktablari tasviriy san`at mashg`ulotlarida o`quvchilarga naqqoshlik, kulolchilik kabi amaliy san`at turlaridan ko`plab ishlar amalga oshirilmoqda. O`quvchilar tabiat manzaralarini, natyurmortni ishlash bo`yicha ham ko`plab yutuqlarga erishib kelmoqdalar. Buni respublikamizda tashkil qilib kelinayotgan o`quvchi-yoshlar ijodiy ishlari ko`rgazmalaridan ham ko`rishimiz mumkin. Biroq, portret va animalistik

janrdagi ishlar juda ham oz bo`lib, bu o`z ustida ishlashni talab qiladigan muammolar sirasiga kiradi.

O`quvchilar uchun inson yoxud qush va hayvonlar tasvirini ishlash birmuncha murakkab bo`lgan vazifalardan hisoblanadi. Ushbu vazifani hal qilish maqsadida turli uslub, yo`llarni qidirish va ular orqali o`quvchilarni san`atga bo`lgan qiziqishlarini oshirish lozim. Jumladan, doimiy harakatda bo`lgan hayvonlar va samoda parvoz qilib yurgan qushlarni ishlash o`quvchilar uchun ancha murakkablik qililadi. O`qituvchi qush va hayvonlar tasvirini ishlashning o`ziga xos tomonlarini o`quvchilarga tushuntirib, sodda uslublarini ishlab chiqishi talab qilinadi. Bu borada ko`plab ishlar amalga oshirilgan, biroq ular hali etarli darajada deb bo`lmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ushbu muammoni baholi qudrat bartaraf qilib, o`quvchi-yoshlarga qush va hayvonlar tasvirini ishlashning o`ziga xos tomonlarini ko`rsatib berish orqali ularga amaliy yordam berish maqsadida bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini **“Qush va hayvonlar tasvirini ishlash metodikasi”**–deb belgilab oldik.

Bitiruv malakaviy ishimiz **d o l z a r b l i g i** ni doimiy harakatda bo`lgan hayvonlar va samoda parvoz qilib yurgan qushlarni soddalashtirish orqali tasvirlash uslublarini ishlab chiqish hamda ularning turlari, uslublari metodikasini ishlab chiqish tashkil qiladi.

A m a l i y a h a m i y a t i esa mavzu material asosida o`rta umum ta`lim maktablari tasviriy san`at o`qituvchilariga qush va hayvonlar tasvirini ishlashning uslublari, sirlarini egallashlari uchun amaliy ko`rsatmalar ishlab chiqish, tasviriy san`at darslari samaradorligini oshirish va o`quvchi-yoshlarni san`atga bo`lgan qiziqishlarini oshirishga bo`lgan izlanishlarimizda o`z aksini topadi. Tadqiqotning natijasi asosida tayyorlaydigan taklif va mulohazalarimiz, tavsiyalarimiz asosida o`rta umum ta`lim maktablari tasviriy san`at darslarining samaradorligini oshishida o`zining amaliy yordamini beradi degan umiddamiz.

Mavzuni to'liq yoritib berish uchun biz o'z oldimizga quyidagi **maqsad va vazifalar**ni belgilab oldik:

- Tasviriy san'at fani dasturlari, darslik va qo'llanmalarini ilmiy tahlil qilish;
- tasviriy san'at turlari va ularni o'ziga xos tomonlarini o'rganish;
- Animalistik janr va uni tasviriy san'atda tutgan o'rnini taxlil qilish;
- Boshlang'ich sinflarda qush va hayvonlarni tasvirini ishlash metodikasi bilan tanishish;
- V-VII sinflarda qush va hayvonlar tasvirini ishlashga qo'yilgan talablarni aniqlash;
- Parandalar va uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar tasvirini ishlashning o'ziga xos tomonlarini ishlab chiqish;
- Yovvoyi hayvonlar tasvirini ishlash usullarini taxlil qilish va samarali uslublarini ishlab chiqish;
- O'rta umumta'lim maktablarida qush va hayvonlar tasvirini ishlash bo'yicha tajriba-sinov darslarini tashkil qilish;
- Erishilgan yutuq va kamchiliklarni taxlil qilish;
- Mavzu materialini asosida, olib borilgan tadqiqot natijalariga asosan taklif va mulohazalar, tavsiyalar ishlab chiqish.

I-bob. O`rta umumta`lim maktablari tasviriylar san`at darslarida qush va hayvonlar tasvirini ishlash mashg`ulotlari.

1.1. Animalistik janr va uni tasviriylar san`atda tutgan o`rni.

Odamlar tomonidan biror-bir ish, narsa, buyum va hokazolar mohirlik bilan bajarilishi va maromiga etkazilib ishlanishi insonning san`atkorlik darajasini bildiradi. Shu boisdan ham rassom, haykaltarosh, me`mor, kulol, bastakor, yozuvchi va boshqa ijodkorlar yaratgan asarlarni san`at asari deymiz. San`at qaysi ko`rinishda bo`lmasin kishilarning his-tuyg`usiga, ruhiyatiga ta`sir etuvchi vosita sifatida namoyon bo`ladi. Har bir ijodkor o`z-o`zicha izlanadi, o`z - o`zicha mehnat qiladi. Ana shuning uchun ham san`at o`ziga xos turlariga va uslublariga, yo`nalishlariga ega.

Adabiyot, musiqa, teatr, kino, tsirk, me`morchilik, tasviriylar va amaliylar bezak va shu kabi boshqa san`at turlari ham mavjud bo`lib, tasviriylar san`at ularni orasida eng qadimigi va keng tarqalgan san`at turlaridan biri hisoblanadi. Uyg`onish davrining buyuk rassomi Leonardo da Vinchi "Tabiat yaratgan shakllarning barcha sifatlariga o`z san`ating bilan taqlid qilishda ustasi farang bo`lmasang, yaxshi musavvir bo`lmog`ing dargumon", deb ta`kidlash barobarida tasviriylar san`atni egallash tabiatni o`rganish, uni sevishtan bilan naqadar bog`liqligini ko`rsatib, bu sohaning o`ta murakkab soha ekanligini uqtirgan edi.

Omma orasidan etishib chiqqan iste`dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning go`zallik va xudbinlik, razolat va qabohat, oliyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, odatlari, yutuq va mag`lubiyatlari ularning san`at asarlarida o`z ifodasini topadi. Har bir davrda mavjud bo`lgan ana shunday san`at hayot go`zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak hislat va fazilatlarini kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilishga da`vat etdi.

Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklargina bo`lib qolmay, balki o`zida inson aql-zakovati, xis-tuyg`ulari, turmush tarzi to`g`risidagi fikr-g`oyalarini o`zida aks ettiruvchi ko`zgu sanaladi.

Ibtidoiy jamoa tuzumidan bizgacha ashyoviy dalillar - mehnat va ov qurollari, uy-anjomlari, bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari etib kelgan. Shular ibtidoiy jamoa kishisining estetik va diniy qarashlarini bilishga, ibtidoiy jamoaning madaniyati haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Tuproq ostida qolib ketgan moddiy yodgorliklar, odam va hayvonlar jasadining qoldiqlari, qoya toshlar, g`orlarga chizilgan surat va bo`rtma tasvirlar ibtidoiy jamoa davri tarixini o`rganishning muhim manbai hisoblanadi.

San`at qadim-qadimda kishilarning mehnati jarayonida yuzaga keldi va rivojlandi. Inson madaniyati taraqqiyot olamiga qadam qo`yadi. San`atning yuzaga kelishi insonning ob`ektiv voqelik to`g`risidagi bilimlarining chuqurlashishiga, o`z avlodi tajribalaridan bahramand bo`lishga olib keldi. Bu uni tabiat kuchlariga qarshi kurashishga da`vat etdi, uning aqliy kamoloti, estetik qarashlari rivojini jadallashtirdi.

Sharqiy Ispaniya, Kavkaz, O`rta Osiyodan topilgan sur`atlar diqqatga sazovvordir. “Kiyiklarni ovlash” (Ispaniya) sur`atlarida obrazlar shartli (kamon otayotgan ovchilarda bu shartlilik yaqqol seziladi), sxematik, o`ta soddalashtirilgan holda tasvirlangan. Lekin bu shartlilik rassom aytmoqchi bo`lgan fikrni tushunishga xalaqit bermaydi. Ov manzarasidagi holat - kiyiklarning jon talvasada qochishi, ovchilarning epchillik bilan olib borayotgan hujumlari, ov paytidagi shijoat, hayajon ibtidoiy jamoa rassomi tomonidan ifodali talqin etilgan. O`rta Osiyo (Surxondaryo, Farg`ona), Ozarbayjondan topilgan suratlarda ham shu xolni ko`ramiz. Zaravutsoy (Surxondaryo), Seymalitosh (Farg`ona) suratlari mashhurdir. Bu suratlarda ovchilarning hayvonlarga hujumi aks ettirilgan. Zaravutsoydagi niqob kiyib, o`ljasiga yaqinlashayotgan ovchilarni aks ettirgan surat o`tmish hayotning ma`naviy dunyosini bilishga xizmat qiladi.

Ushbu tasvirlar zamonaviy animaslistik janrning boshlanishiga asos bo'lganligini barcha juda yaxshi biladi.

Insoniyat qadim-qadim zamonlardan hayvonot olami bilan chambarchas bog'liq holda turmush kechirib keladi. Shuning uchun ham musavvirlar azal-azaldan tabiat go'zalliklarini, hayvonot olamini jonli bo'yoqlarda tasvirlab, kishilarga ma'naviy ozuqa berishga harakat qilganlar.

Shunday musavvirlar borki, ular ko'proq insonlar bilan hamisha yonma-yon yashovchi hayvonot olamini o'z asarlarida tasvirlaydilar. Ana shunday rassomlarni animalist rassomlar deb ataydilar. Animalist –lotincha “animal” so'zidan olingan bo'lib, “hayvonot dunyosi” ma'nosini anglatadi.


1.2. Boshlang'ich sinflarda qush va hayvonlarni tasvirini ishlash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tasviriy san'at darslarida san'at olamiga kirib kelar ekan, ular avvalo borliqni, Ona tabiatni xis qilishni o'rganadilar. Bu yoshdagi bolalarning tassavur va hayolot olami juda ham o'ziga xos bo'ladi. Ular kattalar singari turli bahonalarni o'ylab topmaydilar, aksincha har bir topshiriqqa chin ko'ngildan yondoshadilar. Ularga to'g'ri tushuntirish va amalda ko'rsatib berish lozim bo'ladi. Ular o'zbek xalq ertaklari, xalq og'zaki ijodi qahramonlarining obrazlarini rassom asarlari, kitob illyustratsiyalari orqali tanishib chiqqanlaridan keyin o'zlarining ham tassavvuridagi hosil bo'lgan siymolarni qog'ozga tushirishga harakat qiladilar.

Odatda boshlang'ich sinf o'quvchilari laylak, turna, o'rdak, qaldirg'och, kabutar kabi qushlar bilan bir qatorda ot, eshak, sigir, it, mushuk kabi uy hayvonlarini hamda tulki, bo'g'ri, chiya bo'ri, sher, yo'lbars singari yovvoyi hayvonlar tasvirini ertak qahramonlari siymosida, ya'ni “yaxshi” va “yomon” deb tasavvur qiladilar va tasvirlaydilar. Chunki, boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabgacha ta'lim muassasalarida asosan ertak eshitib katta bo'lish bilan birgalikda ertak qahramonlari tasvirini ham ishlash bilan birgalikda plastilin yordamida yasaydi.


Qolaversa, boshlang'ich sinf o`quvchilari alifboni o`rganish jarayonida ham har bir harfni ma`lum bir hayvon ko`rinishida eslab qoladilar. Jumladan, “b” harfini “bo`ri”, “y” harfini “yo`lbars”, “t” harfini tulki kabilarni bunga misol qilib keltirish mumkin bo`ladi. Bu esa o`z navbatida o`quvchilarning tasavvur olamini boyishga olib keladi.

Natura asosida ishlash tasviriy san`atning asosi bo`lganligi bois o`quvchilar qush va hayvonlar tasvirini ham natura asosida ishlashlari kerak bo`ladi.




Qushni tasvirlash usuli.


Qush va hayvonlar rasmini jonli naturadan chizishga o`tishdan oldin ularning qotirmasi (tulum)da mashq qilish kerak. Chunki, doimiy harakatda yuradigan hayvonlar va samoda parvoz qilib yuradigan qushlar tasvirini ishlash boshlang'ich sinf o`quvchilari uchun ancha murakkablik qiladi. Qimirlamay turadigan qush va hayvonlar tulumida esa bolalar uchun ancha qiziqarli hisoblanadi. Bunday mashg'ulotlar o`quvchilarni hayvonot olamining xarakterli shakllari bilan tanishtiradi, yaxlit ko`ra olish qobiliyatini o`stiradi.



Chumchuqni tasvirlash bosqichi



Turli qushlarning tuzilishi.



Yovvoyi qushlarni chizish usuli.

Modelning umumiy shaklini, unga taalluqli xarakterlarni tez ilg'ab olishga harakat qilish kerak. Ishni boshlashdan oldin tasvirlanuvchi hayvon yoki qush skeleti tuzilish xususiyatlari bilan tanishish maqsadga muvofiq bo'lib, bu keyingi ishni ongli ravishda bajarish, hamma vaqt tashqi qatlam ostidagi skelet suyaklarini his etishga imkon yaratadi. Qo'llanmada qush va hayvonlarning bir qator skelet asoslari, rassomlar, talabalar tomonidan bajarilgan ishlardan namunalar keltirilgan.

O'qituvchi – rassom uchun muhim bo'lgan sinf doskasida rasm ishlash ko'nikmasini hosil qilish uchun qush va hayvonlar qotirmasi yuzasini bo'yashda tus munosabatlarini va modelni yoritish sharoitlarini hisobga olmay, xomaki rasmlar bajarilishi tavsiya qilinadi.



Qushlarni turli holatdagi tasvirini ishlash.


Hayvon yoki qush shakli to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun turli burilishlarda qo'yilgan qotirmalarning o'ziga qarab, so'ng xotira va tasavvur asosida xomaki rasmlar bajarish kerak. Hayvon va qushlar qotirmasi asosida tasvirlar bajarishda ma'lum tajribaga ega bo'lib, keyin jonli naturadan rasmlar bajarishga o'tish mumkin. Hayvon va qushlarni turli holatlarda diqqat bilan kuzatish ularning gavdasi, harakatlari aniqligi tufayli tomoshabinda kuchli taassurot qoldiradi. Mahorat bilan bajarilgan ishlarni ko'rganda chizuvchi rassomlarning natura ustida ishlash hamda ko'ruv xotirasi kuchi boyligiga guvoh bo'lamiz. Ularning tasvirlanayotgan qush va hayvonlarga xos xarakterli xususiyatlarni va plastikani chuqur bilishlari ko'rinib turadi.

Rassom qush va hayvonlarni chizishda o'z oldiga dastlab umumiy shakllarni aniqlashni, keyinchalik esa shaklning xarakterli chiziqlarini aniqlashtirib ifodalash vazifasini qo'yish kerak. Qush va hayvonlar muntazam harakatda bo'lganligi bois xomaki rasmlar bir necha variantda ularning o'ziga qarab chiziladi. Keyin muvaffaqiyatli chiqqan ish keyingi ijodiy faoliyat uchun qabul qilinadi.

Mashhur animalist rassom V.A.Vatagin o'zining "Hayvonlar tasviri" kitobida qush va hayvonlar xomaki rasmini ishlashda quyidagi usulni qo'llashni taklif qiladi: "Siz, masalan, o'tirgan quyonni chizyapsiz, u holatini o'zgartiradi, siz uni chizib olishga ulgurmadigiz. Rasmni tugatmay qoldiring va darhol quyon qabul qilgan ikkinchi holatni chiza boshlang, so'ng uchinchisini va h.z. Sizda bir hayvonning turli holatlardagi va turli darajadagi bir guruh rasmlari zaxirasi hosil bo'ladi. Hayvonlar hayvonot bog'i sharoitida chegaralangan harakatlarga ega bo'lib, ko'pincha bir xil holatlarni takrorlashadi. Chizuvchi tugatilmagan holatlarga qaytib, ularni nihoyasiga yetkazish imkoniga ega".

Sokin holatdagi hayvonlarning xomaki rasmini ishlashda shaklni aniqlovchi asosiy yorug' – soya munosabatlarini ifodalash mumkin.

O'quv topshiriqlarida qush va hayvonlarning qoramalarini bajarish ko'zda tutilgan. Vazifani bajarishdan ko'zlangan asosiy maqsad qushlar va hayvonlarning umumiy ko'rinishi va ularning asosiy xarakterli holati, harakatlarini tasvirlashdir.



Qushning turli holatini qisqa muddatli tasvirini ishlash.

Hayvonlarning harakatlari odam harakatlari singari turli-tumandir. Lekin qush va hayvonlarni naturachi kabi ma'lum bir holatda turishga majbur qilib bo'lmaydi. Shu sababli rassom – pedagogning qush va hayvonlar anatomiyasini yaxshi bilishi naturaning umumiy holatini tez ilg'ab olishga yordam beradi. Qush

va hayvonlarning xomaki rasmini bajarish talabalarda ko'pgina foydali malakalarni, jumladan naturani kuzatgan holda grafik vositalar yordamida tez va malakali rasm chizishni shakllantiradi.

Biror qushni chizishdan oldin o'qituvchi o'quvchilarga uni kuzatishni tasviya qiladi va uni gavda tuzilishi, bosh qismi nisbati qanday ekanligini, tumshug'i qaysi shaklda, u qanday harakatlanadi, uchadi?-kabi savollar bilan murojaat qiladi.

Qushlar tez harakatlanuvchi bo'lganligi sababli ularning tulumidan foydalanish mumkin. Masalan, qarg'a qanday chiziladi? Biz quyida uni chizish bosqichlarini keltiramiz.

Qarg'aning bosh qismi katta, gavdaga birlashib ketgan, o'rtacha kattalikda tumshuq, uzun dum va qanotlardan tashkil topgan. U o'zi qo'ngan butaga oyog'ini qattiq bosib, panjalari bilan qisib turibdi. Bosh qismi xuddi allaqanday ovozni eshitayotgandek diqqat bilan burilgan. Bosh qismi cho'ziq sharsimon, qorin qismi tuxum shaklida.

Yuqoridagilarga asoslanib, bosh shakli va gavdani o'zaro nisbatlarini saqlagan holda belgilab olamiz. Bosh, gavda, dum holatlariga qarab, taxminiy o'q chizig'ini o'tkazamiz. Tumshuq o'rtasidan chiziqni, dum uzunligini va uning gavdaga nisbatan o'lchamini belgilab olamiz.

Nisbatlar to'g'riligini yana bir bor tekshirib, belgilangan shakllarni aniq chizamiz. Ko'krak qafasi, qanotlarni chizib olamiz. Oyoqlar shaklini aniqlaymiz. Panjalar to'rtta: uchtasi oldinda, biri orqaga qayrilgan. Har bir panjada uzun tirnoq. Shundan so'ng tumshuq, ko'z rasmini chizamiz. Chiziq, shtrixlar vositasida xarakterli joylarni beramiz.

Eng asosiysi esa boshlang'ich sinflarda mutaxasis bo'lmagan o'qituvchi tasviriy san'at darsini o'qitadi. Ya'ni, boshlang'ich sinf o'qituvchisini o'zi tasviriy san'at mashg'ulotlarini olib boradi. Hozirda boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tasviriy san'at metodikasi o'qitilmaydiku, u qanday qilib bu fandan mashg'ulot olib boradi? Mutaxasis bo'lmagan boshlang'ich sinf o'qituvchisi yuqorida aytilgan tasvirlash uslublarini o'zi egallamay turib o'quvchilarga qanday qilib o'rgatadi? – degan haqli savolga olib keladi. Halqimizda “chumchuq so'ysa ham qassob

so'ysin!"-degan naql bejiz aytilmaganligini ta'lim tizimiga mas'ul kishilar unutgan bo'lsa! Bizningcha boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at darslarini mutaxassis o'qituvchi o'tishi maqsadga muvofiq bo'ladi. SHundagina o'quvchi-yoshlarni tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishlarini oshirish mumkin.

1.3. V-VII sinflarda qush va hayvonlar tasvirini ishlashga o'rgatish.

V-VII sinflarda qush va hayvonlar tasvirini ishlash alohida mavzu bo'lib kelmaydi. Aksincha, muayyan mavzu asosida qush va hayvonlar tasviri ishlash ko'zda tutilgan. Jumladan, joriy o'quv yili o'rta umumta'lim maktablari uchun tasdiqlangan "Mavzuiy reja"ga asoslanadigan bo'lsak 5-sinf uchun "Men sevgan hayvon" mavzusida rasm ishlash (14-24-mavzular), 6-sinf uchun 12-13 mavzular "O'zbek xalq ertaklari asosida minatyura usulida illyustratsiya ishlash" berilgan. Raxim Xasanov tomonidan ishlab chiqilgan o'qituvchilar uchun uslubiy ko'rsatmada "Qo'riqxonada" mavzusida rasm ishlash, "Suv osti dunyosi" mavzusida rasm ishlash, "Qo'chqorlar jangi" mavzusida haykal ishlash³ kabilarni misol qilib keltirish mumkin bo'ladi.

5-sinf uchun "Tasviriy san'at" darsligida⁴ "Tasviriy san'atda animalistik janr. Suhbat va amaliy ish" (13-dars), "Men sevgan hayvon" mavzusida rasm ishlash mavzulari berilgan.

Boshlang'ich sinflarda qush va hayvonlarni alohida-alohida tasvirini ishlab yurgan o'quvchiga ushbu mavzularda ishlash birmuncha murakkablik qiladi. SHuning uchun ham o'qituvchi o'quvchilarga ushbu mavzularga oid ko'rgazmali qurollardan, sinf doskasidan foydalanib o'rgatishi talab qilinadi. Jumladan, oldingi sinf o'quvchilari ishlaridan, rassom asarlaridan namunalar ko'rsatishi kerak bo'ladi. Bundan tashqari o'qituvchini o'zi sinf doskasida ishlab, amalda ko'rsatishi va ushbu mavzular asosida ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar ishlab o'quvchilarga ko'rsatishi lozim.

³ Рахим Хасанов. Тасвирий санъатдан дарс ишланмалари. 6- синф. Т.; 2015. 55-63-78-66.

⁴ Т. Қўзиев, С. Абдирасилов, Ў. Нуртоев, А. Сулаймонов. Тасвирий санъат. 5-синф учун дарслик. Т.; 2012. 69-72-66.

O`quvchilar amaliy ish boshlaganlarida esa har bir o`quvchiga yakka tartibda kerakli tavsiyalar berib borishi zarur. Qush va hayvonlar rasmini ma`lum mavzu asosida ishlash har bir o`quvchidan kerakli bilim va malakaga ega bo`lishni talab etiladi. Buning uchun o`qituvchi o`quvchilarga qush va hayvonlar haqidagi ma`lumotlarni gapirib, zoologiya darsida olgan bilimlarini yodga solishi talab qilinadi.

Mavzu asosida rasm ishlashdan oldin har bir qush va hayvonlar turmush tarzi haqida o`quvchilarga tushuncha beriladi. Jumladan, qushlar va hayvonlar tabiatning turli xil shart-sharoitlariga moslashgan bo`lib, ularning yasash joylari bir-biridan tubdan farq qiladi va ularning har birini o`ziga xos jihatlari bo`lib, ular biri-biridan shu jihatlari bilan ham alohida ajrab turadi. Masalan, o`rdak vaqtining ko`proq qismini suvda suzish bilan o`tkazadi. Uning gavdasi boshiga nisbatan katta, oyog`i pardali, bular unga suvda suzishiga yordam beradi. Burgutning esa tumshug`i qayrilgan, changali kuchli, tirnog`i o`tkir va qanoti keng bo`lib, doimiy ravishda ko`kda parvoz qilib o`tkir nigohi bilan pastdagi o`ljasini izlashini aytib o`tish lozim. Ko`k qarg`a, chittak, jibljibon, qaldirg`och kabi qushlar ham o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lib, ular bir-biridan nimasi bilan farq qilishini o`quvchilardan so`rab, ularni zoologiya fanidan olgan bilimlarini, kundalik turmushda ko`rganlarini yodga solish va muammoli ta`lim metodidan ham foydalanishi maqsadga muvofiq bo`ladi.

Qushlarning rasmini chizishni o`rganishda, avvalo, boshlang`ich sinflarda tulumiga qarab turli tomondan tasvirlashni mashq qilish maqsadga muvofiq ekanligiga to`xtalib o`tganmiz. Yuqori sinflarda ham ushbu uslubdan foydalaniladi. Buning uchun ularni sinchiklab kuzatish lozim. Keyin tulumlarini tez chizishni mashq qilish orqali jonli hayvon va qushlar rasmi tasvirlashga o`tiladi.

Tirik qushlarning tasvirini ishlash juda qiyin. Chunki, ular tinimsiz harakatda bo`ladilar. Birorta qush rasmini ishlashdan oldin uning boshiga nisbatan gavdasi, tumshug`i, dumining tuzilishini aniqlab olish kerak. Qushlarning tuzilishini geometrik jismlarga taqqoslasak, tumshug`i konussimon, boshi sharga

o`xshashini payqaymiz. Gavdasi esa tuxum shakliga o`xshab ketadi. Ana shu shakllarga o`xshatib qushning boshi, bo`yi, tumshug`i, gavdasini chizish kerak. Albatta, har qaysi bo`lakning o`ziga xos tomonlarini hisobga olib, bir-biriga uzviy bog`lash lozim, aks holda qush boshqa bir qushga o`xshab qoladi.

Qush (turna) rasmini chizish uchun u avval sinchiklab kuzatadi, turnaning gavdasiga nisbatan oyog`i, bo`yni anchagina uzun, tumshug`i ham uzun va uchlidir. Qog`ozga turnaning gavdasi o`rtasidan yo`nalishi bo`yicha qiya chiziq tortib, ana shu chiziqqa uzunchoq tuxum shaklidagi gavdasi belgilanadi. Keyin bo`yini belgilovchi chiziq, oyoqlarning yo`nalishini ko`rsatuvchi chiziq, so`ng dumining uzunligi belgilanadi. Chizish jarayonida qushning tumshug`i, boshi, oyog`i, qanoti, dumining o`lchamlari qayta-qayta solishtirilib aniqlanadi. Ish yorug` va soyalarni asta-sekin tasvirlash bilan nihoyasiga etkaziladi.

Hayvonlar rasmini chizishda ham qushlar rasmini chizishdagi tartibga rioya qilinadi. Ularning tasvirini chizish qushlarni chizishga qaraganda birmuncha qiyin. Chunki, hayvonlarning tana va suyak tuzilishi murakkabdir. Suyaklarning tuzilishini o`rganish ham tasvirni to`g`ri chizishga yordam beradi. Tirik hayvon va qushlar tasvirini tugal ravishda ishlash qiyin. Shuning uchun bunday hayvon va qushlarning asosan xomaki tasviri chiziladi.

Hayvonot olamini tasvirlash ham qiziqarli, ham mushkul. Doimo harakatda bo`lgan yirik hayvonlar, mittigina parrandalarning holatini kuzatib o`rganish va ularni tasvirlash o`quvchilarga keyingi ijodiy ish jarayonida g`oyatda zarur. Bu, o`z navbatida, o`quvchilarning harakat, nisbat, ranglarning o`zaro bog`liqligi kabi tasviriy san`atda muhim bo`lgan qonun-qoidalarni o`zlashtirib olishlarida katta ahamiyatga ega.

O`qituvchi bu bilimlarni o`quvchilarga dars jarayonida tushintirib, amalda chizib ko`rsatganidan tashqari ularni mustaqil ishlashlari uchun uyga vazifa berishi lozim. U quyidagicha amaliy ish topshiriq bo`lishi mumkin:

Qalamda va akvarelda kabutar, qaldirg`och, tovuq, mayna, zag`izg`on, chumchuq va shu kabi qushlarning xomaki rasmlarini ishlash.

Er yuzidagi qushlar olami, hayvonot dunyosi borliqqa o`ziga xos go`zallik beradi. Qushlarni tashqi ko`rinishi, shakli, patlari, tumshuqlari, oyog`lari, ranglarining turli- tumanligi kishi diqqatini benihoya o`ziga tortadi. Ularsiz ona zamin o`zining go`zalligini yo`qotadi. erta tongda yoxud kun botishi oldidan ularni bir-biridan o`tib. Sayrashi olamga o`zgacha tarovat bag`sh etadi.

O`quvchi ona tabiatga mehr bilan boqar ekan, undagi o`t-o`lanlar, daraxtlar bilan birga uzoq-uzoqlarda o`tlab yurgan sigir, buzok, qo`y-qo`zilar, telefon simlarida tizilib o`tirgan qaldirg`ochlar, samoviy ko`kda aylanayotgan qarchig`ay-yu, laylaklar yoki daraxt shoxida og`zini katta ochib qag`illayotgan olahakkalarni ko`rish qanchalik xush yoqsa, ularni rasmini chizish ham shunchalik zavqli bo`ladi. Ularni rasmini chizish uchun anchagina qobiliyat, iste`dod, mashqlar va amaliy tajribalar zarur bo`ladi.

O`quvchilarga qush va hayvonlar tasvirini ishlatishdan ko`zlangan maqsad ham ona tabiat go`zalligini ular ongiga singdirishdan iborat bo`ladi. Qolaversa, ularga bo`lgan e`tibori, mehri ortadi. Darhaqiqat, bu yoshdagi o`quvchilarda uy hayvonlari va parandalariga bo`lgan e`tibori ortgan palla bo`ladi. Ularga bo`lgan e`tibori chizgan rasmlarida ham namoyon bo`ladi.

Yuqoridagilar asosida etarli bilim, ko`nikma va malakaga ega bo`lgan o`quvchi endilikda “Men sevgan hayvon” mavzusida rasm ishlashda duch kelishi mumkin bo`lgan qiyinchiliklarni engib o`tishi oson bo`ladi.

II-bob. O`quvchilarga qush va hayvonlar tasvirini soddalashtirgan tarzda tasvirlashga o`rgatish.

2.1. Parandalar tasvirini ishlashning o`ziga xos tomonlari.


Qushlar gavdasi parlar bilan qoplangan, oldingi oyoqlari qanotga aylangan va uchishga moslashgan, issiq qonli, umurtqali hayvonlardan iboratdir. Qushlarning oyoqlari daraxtlarda mahkam turish, erda yurishga yaxshi moslashgan bo`ladi.

Qushlar o`zining tashqi ko`rinishiga ko`ra xilma-xildir. Bu tuzilish ularning yashash sharoitiga bog`liq holda shakllanadi. Ularning pat-parlarining rangi ham, hatti-harakatlari ham yashash sharoitiga, tevarak atrof-muhitga bog`liqdir.

Qushlar rasmini chizish o`quvchilar uchun biroz murakkablik qiladi. Shu boisdan ham ularni tasvirlashni eng avval yon tomomdan boshlash ma`qul hisoblanadi. Yon tomondan qush rasmini chizishda avval uning gavdasini, so`ngra bo`yini, boshi, dumi va oyog`i chiziladi.

O`quvchilar eng avvalo qushlarni turish holatini, yashash tarzini yaxshilab kuzatishi, shu ko`rinish bo`yicha kontur chiziqlar chizishni, so`ngra gavda ko`rinishini tuxum shaklida chizib olishi, so`ngra boshi va dumini kontur chiziqlarda belgilab oladi, sungra naturaga tez-tez qarab, qushning to`la shakli va asosiy belgilarini chizish lozimligi tushuntiriladi. So`ngra unga tushayotgan yorug`-soylar asosida, mayda chizgilar vositasida to`la tasviri bajariladi. Rasm chizish mashqini ko`rgazmali qurollardagi rasmlardan foydalangan holda olib borishingiz mumkin deb ko`rgazmali ko`rollar o`quvchilar hukmiga havola qilinadi.

O`quvchilarni ko`rgazmali qurolar yordamida parandalar rasmini chizish buyicha mashqlari biroz takomillashgach, ko`rgazmali qurollarni sinf doskasidan olib qo`yib, natura (qushlarni qotirilgan nusxasi, tulum) asosida tasvirini ishlash tavsiya qilinadi. Yoki tirik tovuq, kabutar, olahakka, qaldirg`och, o`rdak kabilarni o`ziga qarab rasmini chizishga urinib kurish taklif qilinadi. Ishni avvalo, uy sharoitida mavjud bo`lgan parandalardan boshlab, keyinchalik yovvoyi qushlar tasvirini ishlaga o`tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



Tovuqni boshini akvarelda ishlangan tasviri.

Yuqorida ta`kidlab o`tganimizdek doimiy harakatda, parvozda bo`lgan qushlarning tasvirini ishlashda ularga yordam bo`lishi uchun o`quvchilarga uyda yoki ko`chada yurgan vaqtida uchragan qushlarni foto nusxasini olish va shu asosida rasmini ishlash tavsiya qilinsa, ularni borliqqa bo`lgan e`tibori yanada ortadi. Hozirgi vaqtda deyarli ko`p o`quvchilarda telefon apparatlari bor, ular yordamida ushbu vazifani hal qilish mumkin bo`ladi.

Misol uchun, bir o`quvchi uyining peshtoqiga uya qurgan qaldirg`ochni rasmini olsa, yana boshqa biri o`zi boqib yurgan kabutarini rasmini oladi, boshqa yana biri esa bo`g`otda joylashib olgan musicha rasmini olishi mumkin. Yana kimisidir o`zi boqib, parvarishlayotgan kabutar, tovuq, o`rdak, g`ulg`ulani fotosini olib, shu asosida rasmini ishlashi mumkin.



Tovuq va jo`jalarini akvarel bo`yog`ida ishlangan tasviri.

Olingan foto nusxalar asosida parandalar tasvirini ishlash o`quvchilarga murakkablik qilmaydi. Aksincha, ular uchun qiziqarli mashg`ulot sanaladi. Bitta foto nusxa yordamida ikki va undan ortiq o`quvchi qush tasvirini ishlaganda, ularni bir-biri bilan solishtirish imkoni tug`iladi. Hattoki, o`quvchilarning o`zlari ishlarini taqqoslab, o`zaro taxlil qiladilar. Bu holat esa foydadan holi bo`lmaydi.

Yuqorida ta`kidlab o`tganlarimizning barchasini oddiy grafit qalam yordamida bajarib, tajrib orttirib olgan o`quvchi keyinchalik rangli qalam va

akvarel' bo'yog'i yordamida oldin tasvirini ishlagan qush rasmini ishlashi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'qituvchi o'quvchilar ishlarini nazorat qilish jarayonida ularni ishlarida katta kamchiliklarni sezsa ham ularni tanqid qilmasligi zarur. O'quvchilarni chizgan rasmlaridagi hato va nuqsonlarini ko'pchilikni oldida aytib, o'quvchini izza qilish xech bir pedagogik etikaga to'g'ri kelmaydi. Uni o'rniga o'quvchini ko'nglini ko'tarib, chizgan rasmini maqtash kelgusidagi yaxshi ishlarga zamin yaratadi.

2.2. Uy hayvonlari tasvirini ishlash metodikasi.

Uy hayvonlari ham barcha hayvonlarqatori tiriklik mavjudotlari olamining eng katta turi sanaladi. Uy hayvonlari tabiat va kishilik jamiyatining shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti, rivojlanishida juda katta omil bo'lib kelganligini yaxshi bilamiz. Shu boisdan ham hayvonlar tasvirini ishlashni odamlar ibtidoiy jamoa davridanoq boshlanganligi bejiz emas. Hayvonlar rasmini chizish va tasvirlash butun kishilik jamiyati taraqqiyotida asosiy asosiy mavzulardan biri bo'lib keladi. Jahonning ko'zga ko'ringan rassomlaridan P.Pottera, A.Keypa (gollandiyalik), K.Troyone (frantsiyalik), N.Sverchkova, P.Kovalevskaya, P.Klodt, P.Sokolov, V.Serov, A.Stepanov, V.Vatagin, I.Efimov, A.Laptev, A.Komarov, V.Trofimov va shu kabi boshqa (rossiyalik) rassomlar hayvonlar tasvirini juda ko'p yaratganlar.

Hayvonlar rasmini chizish tabiatni, borliqni o'rganish, undan foydalanish va unga mehr-muhabbatli bo'lish ruhida tarbiyalashni yo'lga qo'yadi. SHu boisdan bolalarni estetik tarbiyasi bilan shug'ullanadigan tasviriy san'at o'qituvchilari hayvonlar rasmini chizishni o'quvchilarga o'rgatishdan oldin avvalo o'zlari o'rganishlari g'oyat katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, tasviriy san'at o'qituvchisi avvalo o'zi chizib, amalda ko'rsatib berishi orqali bolalarga tabiat sirini o'rgatishi, ularga mehr-shafqatli bo'lish ruhini singdirishlari zarur.

Uy hayvonlari rasmini chizish ham xuddi qushlar rasmini chizish tartibida olib boriladi va amalga oshiriladi. O`qituvchi ixtiyoriy bir uy hayvoni rasmini sinf doskasiga ilib quyadi va o`quvchilar yordamida uni taxlil qiladi.

Rasmdagi hayvonning gavdasi, bo`yni, boshi, dumi va oyoqlarining tuzilishidagi o`ziga xosligini taxlil qilib, ularni qushlarga biroz bo`lsada o`xshab ketishiga e`tibor qaratiladi. Shu boisdan ham uy hayvonlari rasmini chizish mashqi ham xuddi qushlar kabi, yon tomonidan boshlanishi lozim bo`ladi, bu o`quvchiga biroz bo`lsada engillikni ta`minlaydi. Shundan keyingina uy xayvonlarini ham oldi, orqasi va shu kabi turli-tuman harakat holatlarida turgan davri rasmini ishlash maqsadga muvofiq sanaladi.

Hayvonlar rasmini chizishda ularning umumiy balandligi, eni va gavda a`zolari chetgi chiziqlar yordamida belgilash bilan boshlanadi va rasmni asta-sekin bir bosqichdan ikkinchisiga o`tishga asoslangan holda olib boriladi.

Uy hayvonlari rasmini chizish mashqini kichikroq hajmdagi uy hayvonini tanlab, uni osonroq holatini topib, rasmini chizishga harakat qilishda davom ettiriladi. Boshlang`ich mashqlarda ko`rsatmali qurollar yordamidan foydalangan holda olib boriladi. Bu o`quvchiga katta yordam beradi. Ko`rgazmali qurol tayyorlashda o`qituvchi o`quvchilarni qiziqtiradigan bir necha uy hayvonlarining rasmi ishlashi talab qilinadi. Chunki, o`quvchi o`zi qiziqqan ushbu uy hayvonlari rasmini ham zavq bilan ishlaydi. Bolaga yaxshi tanish bo`lmagan, boshqacha qilib aytadigan bo`lsak mahalliy sharoitda mavjud bo`lmagan hayvonni ishlash o`quvchi uchun noqulaylik tug`diradi. Bolaga yaxshi tanish bo`lgan hayvonnini chizishni yaxshilab o`rganib olinganidan keyin unga yaxshi tanish bo`lmagan boshqa hayvonlar rasmini chizishi tavsiya qilinadi.

Parandalar rasmini ishlash jarayonida qo`llagan uslublarining barchasini uy hayvonlari tasvirini ishlashdan ham qo`llash mumkin. Ularning tubdan farqi, avvalo ularning qanotlari o`rniga endilikda oyoqlar mavjudligi ekanligidadir. Qolaversa, uy hayvonlari qushlar singari samoda parvoz qilib yurmasdan, oldimizda ko`pincha bog`liq holda turishini ham unutmasligimiz va buni o`quvchilarga yaxshi tushuntirishimiz shart. Bundan ham tashqarisi esa ular

qushlar singari juda ham ko`p harakat qilmasligi bois ularni ishlash birmuncha engil bo`ladi.



Ot boshini tasvirlash.

Shu o`rinda biz quyida tasvirini keltiradigan tarzda uy hayvonlarini tasvirini birdaniga to`liq qomatini ishlamasdan ularni boshini alohida ishlash ham o`ziga xos tarzda o`quvchi uchun engillik tug`dirishini unutmasligimiz kerak. Nafaqat ularni boshi, balki uning bo`yni, dumi, oyogi va hattoki tuyog`ini ishlash ham bola uchun qiziqarli bo`ladi. Qolaversa, molni ishlashdan ko`ra buzoqni, otni ishlashdan ko`ra esa toychoqni, qo`yni ishlashdan esa qo`zichoq rasmini ishlash o`quvchilar uchun qiziqarli mashg`ulot hisoblanadi.



Ikki otning boshi tasvirini ishlash.



Ot boshi tasviri.




Otlar tana tuzilishini tasirini ishlash.

2.3. Yovvoyi hayvonlar tasvirini ishlash usullari.


Yovvoyi hayvonlar rasmini ishlash uy hayvonlari yoki parandalar tasvirini ishlashga nisbatan birmuncha murakab hisoblanadi. SHuning uchun ham o`qituvchi o`quvchilarga boshlang'ich sinflarda alifboni o`rganish jarayonida har bir harfni qaysidir hayvon ko`rinishi orqali yodda saqlab qolganliklarini elatgan holda, har bir harfga mos yovvoyi hayvon ko`rinishini ko`z oldiliriga keltirishlariga yordam qilishi kerak bo`ladi.

Yovvoyi hayvonlar rasmini jonli naturadan chizishga o`tishdan oldin ularning qotirmasi (tulum)da mashq qilish kerak. Bunday mashg'ulotlar chizuvchini hayvonot olamining xarakterli shakllari bilan tanishtiradi, yaxlit ko`ra olish qobiliyatini o`stiradi.



Modelning umumiy shaklini, unga taalluqli harakterlarni tez ilg'ab olishga harakat qilish kerak. Ishni boshlashdan oldin tasvirlanuvchi hayvon skeletining o'ziga xos tuzilishi, xususiyatlari bilan tanishish maqsadga muvofiq bo'lib, bu keyingi ishni ongli ravishda bajarish, hamma vaqt tashqi qatlam ostidagi skelet suyaklarini his etishga imkon yaratadi

Hayvon shakli to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun turli burilishlarda qo'yilgan qotirmalarning o'ziga qarab, so'ng xotira va tasavvur asosida xomaki rasmlar bajarish kerak. Hayvon va qushlar qotirmasi asosida tasvirlar bajarishda ma'lum tajribaga ega bo'lib, keyin jonli naturadan rasmlar bajarishga o'tish mumkin.



Yovvoyi hayvonlarni jonli naturadan ishlash manbaasi esa zoopark hisoblanadi. Hayvonlarni turli holatlarda diqqat bilan kuzatish ularning gavdasi, harakatlari aniqligi tufayli o'quvchida kuchli taassurot qoldiradi. Mahorat bilan bajarilgan ishlarni ko'rganimizda animalist rassomlarning natura ustida ishlashlarida ko'z xotirasining naqadar kuchli ekanligini guvohi bo'lamiz. Ulardan hayvonlarga xos xarakterli xususiyatlarni va plastikani chuqur bilishlari ko'rinib

turadi. O`quvchiga yovvoyi hayvonlarni chizishda o`z oldiga dastlab umumiy shakllarni aniqlashni, keyinchalik esa shaklning xarakterli chiziqlarini aniqlashtirib ifodalash vazifasini qo`yish kerak bo`ladi.

Yovvoyi hayvonlar uy hayvonlari singari doimiy bir joyda uzoq vaqt turmasdan, keng vodiy va vohalarda, tog`larda, o`rmonlarda muntazam ravishda harakatda bo`lganligi bois xomaki rasmlar ham foto sur`atga yoki ko`rgazmali qurolga qarab bir necha variantda chiziladi. Muvaffaqiyatli chiqqan ish keyingi ijodiy faoliyat uchun qabul qilinadi.



N.Ustinov. “Ayiqlalar” xomaki tasviri. Qog`oz, tempera, mo`yqalam.

Mashhur animalist rassom V.A.Vatagin o'zining "Hayvonlar tasviri" kitobida yovvoyi hayvonlar xomaki rasmini ishlashda quyidagi usulni qo'llashni taklif qiladi: "Siz, masalan, o'tirgan quyonni chizyapsiz, u holatini o'zgartiradi, siz uni chizib olishga ulgurmadigiz. Rasmni tugatmay qoldiring va darhol quyon qabul qilgan ikkinchi holatni chiza boshlang, so'ng uchinchisini va h.z. Sizda bir hayvonning turli holatlardagi va turli darajadagi bir guruh rasmlari zaxirasi hosil bo'ladi. Hayvonlar hayvonot bog'i sharoitida chegaralangan harakatlarga ega bo'lib, ko'pincha bir xil holatlarini yana qayta takrorlashadi. O'quvchi avval ishlab, tugalamagan holatiga qaytib, ularni nihoyasiga etkazish imkoniga ega". Bunday xomaki tasvirlar uchun ajratilgan vakt 5-10 minutdan iborat bo'lib, o'quvchidan bor diqqat-e'tiborini hayvonni hatti-harakatini yaxshilab kuzatishi va tasvirlashi talab qiladi.

O'quvchilar zoologiya darslarida o'rgangan bilimlariga tayangan holda rasmi ishlayotgan hayvon suyak tuzilishining o'ziga xos tomonlarini tasavvur qilishi yoki aynan o'sha ko'rgazmali kurollardan yana foydalanishi ishning samarali chiqishiga ta'sir qiladi. Boshlanishida yovvoyi hayvon tulumining xomaki tasviri uchun natura tanglaganda shakli va tuzilishi jixatidan kichiq va soddarog'ini tanlagan ma'qul. Bunday qilinmasa umumiy tuzilishini topishda qiyinchilik tug'iladi va beixtiyor detallashtirishga o'tib ketiladi.

Hayvon tuzilishi xaqida to'liq tushunchaga va tasavvurga ega bo'lish uchun turli holatlarda qo'yilgan tulumning o'ziga qarab uning xomaki tasvirini ishlash ksrak, keyin esa xotira va tasavvur asosida xomaki tasvir ishlanadi. Hayvonlar tulumini asosida tasvir ishlab, ma'lum malakani egallab bo'lgandan so'ng, tirik naturadan xomaki tasvir ishlashga kirishish mumkin. Hayvonlarnig harakatini, tana tuzilishidagi plastik holatini diqqat bilan har tomonlama kuzatish zarur.


Har bir hayvonning tanasi harakterli tuzilishga va tashqi ko'rinishga bog'liq egaligini avalgi bo'limlarda ham ko'rib chiqqanmiz. O'quvchiga kundalik turmush tarzida doimiy ravishda ko'rib yuradigan, yashash sharoiti tanish bo'lgan uy hayvonlari va parandalarning tasvirini ishlashga nisbatan

yovvoyi hayvonlar tasvirni ishlash murakkab jarayon. Misol uchun tovuq, o`rdak, mol, qo`y, ot kabi uy hayvonlari va parandalari maxalliy sharoitda deyarli hamma xonadonlarda uchratish mumkin. Yovvoyi hayvonlar esa buni butunlay aksi bo`lib, ularni tabiiy sharoitda uchratish hayot uchun xavfli hisoblanadi. Qolaversa, yovvoyi hayvonlarini aksariyati yirtqich hayvonlar bo`lib, o`quvchilar ularni rasmini zooparkda ishlaganlarida ham ehtiyot bo`lishlari talab qilinadi. Onda-sonda, aniqrog`i faqatgina zooparklardagina uchratgan jonivorlar rasmini ishlash o`quvchidan ko`p vaqt va kuch talab qiladi. Shunda ham avvaliga tinch holatda turgan hayvon xomaki tasvirini ishlagan ma`qul, chunki bunda umumiy tuzilishni topish engil bo`ladi. Keyinchalik esa tuzilishning o`ziga xos xarakterli tomonini topish bilan birga ushbu hayvon to`g`risida to`liq tushuncha beruvchi harakatdagi holatini ko`rsatishni ham maksad qilib qo`yish kerak bo`ladi. Hayvonlar doimo harakatini o`zgartirib turadi, shuning uchun ham xomaki tasvir naturadan ishlangan boshqa tasvirlar ichida birmuncha engili hisoblanadi.

Sokin holatdagi hayvonlarning xomaki rasmini ishlashda shaklni aniqlovchi asosiy yorug` – soya munosabatlarini ifodalash mumkin.


O`quv topshiriqlarida yovvoyi hayvonlarning qoralamalarini bajarish ko`zda tutiladi. Vazifani bajarishdan ko`zlangan asosiy maqsad hayvonlarning umumiy ko`rinishi va ularning asosiy xarakterli holati, harakatlarini tasvirlashdan iborat.

Hayvonlarning harakatlari ham xuddi odam xarakati singari turli-tumandir. Yovvoyi hayvonlarni naturachi kabi ma`lum bir holatda turishga majbur qilib bo`lmaydi. Shu sababli ham rassom – pedagoglarning yovvoyi hayvonlar anatomiyasini yaxshi bilishi naturaning umumiy holatini tez ilg`ab olishga yordam bergan. O`quvchilar ham hayvonlarning xomaki rasmini bajarishda ko`pgina foydali malakalarni, jumladan naturani kuzatgan holda grafik vositalar yordamida tez va malakali rasm chizishni bilishi talab qilinadi.



Agar hayvon holatining o`zgarishi natijasida boshlangan tasvirimizni oxiriga etkazaolmasak, u holda xech ikqilanmasdan boshqasini boshlash kerak. Harakatdagi hayvon bir muncha fursat o`tib birinchi holatiga yana qaytishi mumkin, shunda yana birinchi ishni davom ettirish mumkin bo`ladi. Shuning uchun ham xomaki tasvirni ortikcha, mayda detallar bilan to`ldirib tashlash shart emas. Qolaversa, bir varoq qog`ozga bir nechta tasvir ishlash avvalgi ishga qaytish imkoniyatini berish bilan birgalikda qog`ozda ham hayvonning turli holatlarini taqqoslash orqali uning xarakterli xususiyatlarini o`rganish uchun kulaylik tug`diradi. Hayvon bir holatda uzoqroq turib qolganda, biz xomaki tasvirni chizgilar bilan boyitib qoralama holatiga olib kelishimiz mumkin. Hatto o`sha tasvir yoniga uning uchun xarakterli bo`lgan boshi, oyog`i, dumi yoki shu kabi qismlarini ishlab qo`yish mumkin. Bundan tashqari, qalam bilan oldindan xomaki tasvirni ishlab olib ustidan akvarel` bo`yog`i yoki sangina, pastel` bilan ham ishlov berishimiz mumkin. Taniqli rus rassom pedagogi A.O.Barsh hayvonot olamini tasvirlash uchun o`quvchilarga qator mustaqil ishlar tavsiya qiladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Hayvon suyak tuzilishi asosida qoralama ishlash. Bu qoralamalar viloyat o'lkani o'rganish muzeilarida yoki zoologiya kitoblaridan, reproduksiyalar yoki fotosu'ratlardan qarab ishlash bilan chegaralangan bo'lishi mumkin.
2. Tinch holatda turgan va harakatda bo'lgai yovvoyi hayvonlardan xomaki tasvir ishlash;
3. Boshni bo'yin bilan va boshqa qismlari qoralamasi: panja, tuyoq, yoyilgan qanot va shu kabilar.
4. Xotira asosida qush va hayvonlar qaralamasini ishlash.



5. Hayvon uchun harakterli bo'lgan tinch holatda yoki harakatdagi holatini umumlashgan tasvirini tasavvur asosida ishlash.

Bunga qo'shimcha qilib quyidagilarni tavsiya qilishimiz mumkin:

1. O'quvchi zoologiya darslarida olgan bilimlariga asoslangan holda hayvon va qushlar tasvirini takqoslash asosida rasmini ishlashi lozim;
2. Hajmi jihatidan sodda va kichik hayvonlar xomaki tasvirini ishlashdan boshlash kerak;

3. Chiziqli xomaki tasvirlardan boshlab qoralama va xomaki nusxalar ishlashga o'tish lozim;
4. Kam harakat qiladigan hayvonlar tasvirini ishlashdan boshlab harakatchan hayvonlar tasvirini ishlashga o'tish kerak;
5. Hayvonlarning yakka holatdagi tasvirini ishlash asosida ularning gurux yoki to'da shaklidagi tasvirini ishlashga o'tish;
6. Yuqoridagilarga asosanlangan holda "Men sevgan hayvon", "Qo'riqxonada" kabi mavzular bo'yicha rasm ishlashga o'tishni tavsiya qilamiz.


Bu ishlarning barchasini amalda oshirishdan oldin o'quvchilar animalist rassomlar ijodi bilan tanishishi va ularning ayrim ishlaridan nusxa ko'chirishlari ham maqsadga muvofiq bo'ladi. "Paleolit (kadimgi tosh asrida) davrida hayvonlarni tasvirlash bilan tasviriy san'at tarixi boshlangan"- deb rus animalist rassom V.A.Vatagin sanat tarixi, xususan hayvonlar tasvirini ishlash san'atining naqadar kadimiyligiga to'g'ri baho beradi. Frantsiya, Ispaniya, kadimgi O'rta Osiyoning juda ko'plab g'orlari, qoyatoshlaridan topilgap ov manzalarini madx etuvchi tasvirlardan boshlab to hozirga qadar ishlangan hayvonot olamining betakror namunalari bilan yaqindan tanishib borgan o'quvchi o'zining ijodiy ishlari jarayonida ham nazariy ham amaliy bilimga ega bo'lib boradi.



Yo`lbars. O`quv mashg'uloti.

Rembrandtni bizgacha etib kelgan tasvirlari ichida italyan qalami bilan bajarilgan fil va she`r xomaki tasviri ifodaliligi va katta chizgilari tufayli tasvirlanayotgan hayvonlar qudrati hamda shaklning yaxlitligi xususida yaxshi taassurot qoldiradi.

Fillar tasvirlari.



III-bob. Tajriba-sinov darslarini tashkil qilish.

3.1. Tajriba-sinov dars ishlanmalari

13-dars. Tasviriy san`atda animalistik janr. Suhbat va amaliy ish⁵.

Hozirda o`rta umumta`lim maktablarida o`qitilayotgan tasviriy san`at fani darslik va o`quv qo`llanmalarda tasviriy san`atda animalistik janr haqidagi suhbat darslari quyidagi jumlar bilan boshlanadi.

Animalistik janr o`zgacha tasviriy san`at turidir. U lotincha “animal” – hayvonot olami degan ma`noni bildiradi. Animalist–rassom hayvonot dunyosiga zo`r qiziqish, sevgi va mahorat bilan yondoshadi.

Hayvonot dunyosi ibtidoiy odamlar hayotida katta ahamiyatga ega bo`lgan. O`sha davrda ular g`orlarning devorida kiyik, qo`tos, mamontlarning sur`atlarini chizganlar.

Qadimgi Yaponiyada va Xitoyda hayvonlarning tasvirlari dekorativ naqshlar tuzishda hamda mahobatli kompozitsiyalar yaratishda asosiy manbaa hisoblangan. XVII asrga kelib hayvonot olami anatomiyasini buyuk musavvirlar Leonardo da Vinchi va A.Dyurerlar ishlab chiqdilar.

Rossiyada birinchi animalist–rassom I.Groot edi. Keksa haykaltarosh va grafik musavvir V.A.Vatagan esa o`zining ko`plab asarlarida to`rt oyoqli do`stlarni haqqoniy va ishonchli tasvirlaydi.

O`rta Osiyodagi dastlabki haykaltaroshlik yodgorliklari knyaz Romanov saroyi (Toshkent) oldiga o`rnatilgan hayvonlar haykali (it, kiyik), Mohi Xosa (Buxoro) eshigi oldidagi sherlar haykali hisoblanadi. 1886 yili Toshkentdagi ko`rgazmada usta To`xta Sodiq Xo`jaev alebasterdan yasagan ot va kiyik haykalchasini namoyish etganligi bizga ma`lum.

Tasviriy san`atning animalistik janrida rus rassomi R.Mordvintsev tomonidan yaratilgan “Jimlik” nomli asarida ot va qulonning yaylovdagi tasvirini ko`rish mumkin.

⁵ Тасвирий санъат 5-синф учун дарслик. Т. Қўзиев, С. Абдирасилов, Ў. Нортоев, А. Сулаймонов. Т.; 2012. 66-б.

O'zbekistonda animalistik janrda asosan, haykaltaroshlarimiz salmoqli ijodiy asarlarni yaratganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Jumladan, o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab M.Musaboev, A.Boymatov, J.Quttimurodov kabi ko'plab iste'dodli haykaltaroshlar ijod olamiga kirib keldilar. Ular o'zbek xalqining o'tmishi, bugungi kuni, turmushi, mehnat faoliyati va ijodiy ishlarini o'z haykallarida ifodalangan. Abdimo'min Boymatov 1934 yili Farg'ona viloyatining Beshbola qishlog'ida tavallud topdi. O'zbekiston xalq rassomi, animalistik haykal janri bo'yicha bir qator ishlarni amalga oshirgan haykaltaroshlardan hisoblanadi.

Mustaqillik davri haykaltaroshlik san'atining mahobatli turida ishlangan ilk tarixiy asarlar sifatida A.Temurning mahobatli otliq haykali (I.Jabborov)ni qayd etish joizdir.

Bu davrda dastgohli haykaltaroshlik san'ati vakillari tomonidan T.Tojixojaevning "Chavandoz", J.Quttimurodovning "Oqqush" kabi ko'plab asarlari yaratildi.

Nazorat savollari:

1. Animalistik janr nima?
2. Qaysi davrdan boshlab hayvonlar tasviri chizilgan?
3. Hayvonlar haykalini yaratgan haykaltaroshlardan kimlarni bilasiz?
4. "Oqqush" asarining muallifi kim?

Dars ishlanmasida ma'ruza matniga ilova tarzida 4 ta illyustratsiya berilgan bo'lib, ma'ruza matniga mos keladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ushbu darslikda asosan haykaltaroshlik asarlari bilan cheklanib qolingan. Qush va hayvonlar tasviri aks ettirilgan rangtasvir asarlari, reproduksiya, slaydlar haqida fikr yuritilmagan.

Demak, o'quvchilarda amaliy ish ham faqat haykaltaroshlik turi bo'yicha bo'ladi degan fikr uyg'onadi. Bizningcha esa tasviriy san'atni qaysi turida ishlash masalasi o'quvchi ixtiyorida bo'lsa darsning samaradorligi oshadi.

14-dars. “Men sevgan hayvon” mavzusida rasm ishlash.

Uy hayvonlariga, masalan: ot, sigir, qo`y, mushuk, kuchuk, quyon kabilar, yovvoyi hayvonlarga, masalan, yo`lbars, sher, bo`ri, tulki, ayiq, fil kabilar kiradi.

Hayvonlar tabiatimizning chiroyi, ular biz bilan birgalikda hayot kechiradi. Hayvonlar tabiatning har xil sharoitlariga moslashgan bo`lib, yashash joylari bir-biridan farq qiladi. Hayvonlarning rasmini ishlayotganingizda, avvalo, ularni sinchiklab kuzatish va o`rganish lozim. Ularning tanasi qanday qismlardan tuzilganligini va bu qismlar qanday shaklga ega ekanligini aniqlash kerak. Masalan, mushukning harakatchanligi, oyoqlarining chaqqonligi, unga daraxtga, tomlarga chiqishiga, ov qilishida yordam beradi. Mushukning tanasi, to`rtta oyog`i, kallasi, dumi, quloqlarini alohida ajratib ko`rsatish mumkin. Mushukning eng katta qismi – bu uning tanasi bo`lib, oval shaklida, boshi esa sharsimon, quloqlari uchburchak, dumi esa egri shaklda bo`ladi.

Ushbu dars ishlanmasiga ham 5 ta illyustratsiya berilgan bo`lib, Ot, tuya, it, qo`y, mushuk, quyon kabi hayvonlar tasvirini ishlash uslublari ko`rsatib berilgan.

Nazorat savollari:

1. Rasmda qaysi hayvonlar tasvirlangan?
2. Uy hayvonlariga qaysilar kiradi?
3. Yovvoyi hayvonlarga qaysilari kiradi va tuzilishi qanday?
4. Ularning ranglari haqida nimalar deya olasiz?
5. Hayvonlarning tasvirlari qanday bajariladi?

Topshiriq: O`quvchilarga o`zlari sevgan uy hayvonlarini chizib kelish topshiriladi.

Yuqoridagi dars ishlanmalari darslikda qanday keltirilgan bo`lsa shundayligicha oldik. Chunki viloyatlardagi barcha tasviriy san`at o`qituvchilari ushbu darslik asosida ishlaydilar.

Ushbu dars matnlarida o`quvchilarni zoologiya fanidan olgan bilimlarini yodlariga solish haqida fikr yuritilmagan. Ayniqsa, 14-darsda oldinga dasrdagi “Animalistik janr haqida suhbat” o`quvchilarga eslatib o`tish kerak edi. Axir har

bir fanda oldingi mavzuni mustahkamlash masalasi ko`riladiku. Bizningcha ushbu darslikka mos ravishda o`qituvchilar uchun uslubiy ko`rsatmalar kerak bo`ladi.

Biz quyida Rahim Xasanov⁶ tomonidan o`qituvchilar va talabalar uchun ishlab chiqilgan shunday uslubiy ko`rsatmani afzaligini ko`rib chiqamiz.

“Qo`riqxon” mavzusida rasm ishlash.

(6-sinf)

Darsning vazifalari.

1. Ta`limiy vazifalar:

- qalam va mo`yqalam bilan ishlash malakalarini o`stirish;
- o`quvchilarni hayvonot olami haqidagi tasvvurlarini aniqlashtirish va ularning ranglarini to`g`ri tasvirlashga o`rgatish;
- tasviriy san`atning nazariy asoslari (kompozitsiya, perspektiva, ragshunoslik, yorug`-soya) yuzasidan olingan bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish;
- kompozitsiyada detallarni o`zaro bog`liqlikda tasvirlashga o`rgatish;
- tasviriy san`at asarlarini o`qishga o`rgatish;
- o`quvchilarning badiiy fikr doirasini kengaytirish.

2. Tarbiyaviy vazifalar:

- o`quvchilarda tabiat olamiga nisbatan mehr-muhabbatni uyg`otish, uni asrab-avaylash hamda ko`paytirish yuzasidan qiziqishlarini tarbiyalash;
- hayvonot olamidagi nafosatni estetik idrok etishni tarbiyalash.

3. Rivojlantiruvchi vazifalar:

- o`quvchilarda idrok, xotira, tasavvur, tafakkut, fantaziya kabi psixik jihatlarini o`stirish;
- ularda tabiatga nisbatan his-hayajonni tarkib toptirish hamda ulardan estetik zavq olishga o`rgatish.

⁶ Раҳим Хасанов. Тасвирий санъатдан дарс ишланмалари. 6-синф учун. Ўқитувчилар ва талабалар учун услубий кўрсатма. Т.; 2015. 55-58-66.

Darsning jihozlanishi. Mavzuga doir rassomlar tomonidan ishlangan asarlarning reproduksiylari, slaydlar va videoroliklari. Mavzuga doir o`qituvchi tomonidan ishlangan kompozitsiyalar. Maktabdagi paralel sinf o`quvchilari tomonidan “Qo`riqxonalar” mavzusida ishlangan rasmlardan namunalar. Uy va yovvoyi hayvonlarining rasmlari.

**O`qitish metodlari.** O`quv materialini bayon etish. Suhbat. Namoyish etish va taxlil. Tasviriy-amaliy ish.

Darsning mazmuni. O`qituvchi darsning boshlanish qismida bolalarga qo`riqxonalar haqida qisqacha ma`lumot beradi. U taxminan quyidagicha mazmunda bo`lishi mumkin:

Qo`riqxonalar tabiatning bir bo`lagi bo`lib hayvonlar, o`simliklar, foydali qazilma, noyob rel`ef shakllari davlat qonuni asosida muhofaza qilinadigan joy. Ko`pchilik qo`riqxonalarda kamayib ketayotgan va muhofazaga muxtoj bo`lgan, shuningdek ko`paytiriladigan hayvonlar boqiladi. U erda hayvon va o`simliklarga tegishli sharoitlar yaratiladi, ularning hayoti boshqariladi.

O`zbekistonda 12000 dan ortiq qo`riqxonalar bor. Ular asosan tabiatni, hayvonlarni qo`riqlash maqsadida tashkil etilgan. Ular orasida Zomin, CHotqol, Orolpayg`ambar, Qizilqum, To`qayli qum, Qora qum, To`qayli saxro, Nurota, Zarafshon, Arnasoy kabi qo`riqxonalar mavjud. Bu qo`riqxonalarda muhofazalangan hayvonlar orasida jayra, bo`rsiq, kaklik, yovvoyi cho`chqa, mayna, jayron, sahro toshbaqasi va shu kabi boshqalar bor.

Navbatdagi vazifa bolalarda Respublikamizda va xorijiy mamlakatlarda muhofazaga olingan qush, hayvon, daraxtlarni qaysilarini bilishlaridni so`rashdan iborat.

O`quvchilar faqat yuqorida qayd qilingan O`zbekistondagi qo`riqxonalarni emas, balki boshqa mamlakatlar (SHimoliy Hindiston, Afrika qit`asi, Avstraliya va boshqalar)dagi qo`riqxonalar rasmlarini ishlashlari ham mumkin. CHunki, O`zbekistonda yashamaydigan zebra, jirafa, fil, kenguru, bug`u, sher kabi hayvonlarni va Afrika savannalarining rasmini ishlash ham nihoyatda zavqlidir.

Suhbat jarayonida o`qituvchi bolalarda katta qiziqish uyg`otadigan yovvoyi hayvonlar-tuyaqush, yo`lbars, zebra, qoplon, fil, jirafa, begemot kabilarning rasmlariga o`quvchilar e`tiborini qaratadi. Ularning yashash tarzi, yashaydigan joylari, shakllari, tuzilishi, ranglari, tashqi ko`rinishlari haqida alohida to`xtalib o`tiladi. Qo`riqxonada yoki hayvonot bog`larida bu hayvonlarga yaratilgan sharoitlar haqida gapiradi hamda ularning rasmlarini namoyish etadi.

Bunday qisqa suhbatdan so`ng o`qituvchi asosiy ishga o`tib, ishlanadigan kompozitsiya yuzasidan bolalarga ko`rsatma beradi. Unda qaysi hayvon, qanday ko`rinishda, qanday joylarda, qanday holatda tasvirlanishi haqida fikr yuritiladi. Bu hayvon va qushlarni tasvirlash yo`llari yoki bosqichlari ham namoyish etilishi mumkin.

O`qituvchining suhbat va etarlicha ko`rsatmalaridan so`ng bolalar rasm ishlashga kirishadilar. Katta o`lchovdagi ishlangan hayvon va qushlarning rasmlari doskada osig`liq holda qo`yilgan bo`ladi. Bolalar ulardan o`zlarining ijodiy ishlari jarayonida foydalanadilar.

Bolalarning ijodiy ishlari jarayonida o`qituvchi ularning faoliyatlarini nazorat qilib turadi va tegishli og`zaki yoki amaliy yordam ko`rsatadi.

Ijodiy ish ikki soatga mo`ljallanganligi sababli bolalar birinchi darsda kompozitsiyaning qalamtasvirini, ikkinchi darsda rangtasvirini ishlaydilar.

Har bir darsning yakunida o`qituvchi bolalar tomonidan ishlangan eng yaxshi va bo`shlaridan namuna tanlab oladi hamda ularni sinfdagi barcha o`quvchilar ishtirokida taxlil qiladi. Taxlil “Tanqidiy tafakkur”, “Sud” kabi pedagogik texnologiyalar asosida amalga oiriladi.

Uyga vazifa: Birinchi darsning oxirida sinf ishining qalamtasvirini, ikkinchi dars oxirida rangtasvirini davom ettirish va yakunlash vazifa qilib topshiriladi.

Yuqorida keltirilgan dars ishlanmalari asosida Chust tumani Olmos qishlog`idagi 56 va 63-o`rta umumta`lim maktablarida tajriba-sinov darslarini tashkil qildik.

3.2. O`rta umumta`lim maktablarida qush va hayvonlar tasvirini ishlash bo`yicha tajriba-sinov darslarini tashkil qilish.

Umumta`lim maktablarida tasviriy san`at darslarini takomillashtirish yuzasidan olib boriladigan tajriba-sinovlarimizni boshlashdan avval oldimizga bir qator maqsadlarni qo`yib oldik:

- tajriba sinov darslarini olib borishda maktablardagi tasviriy san`at darsida o`zlashtirish past bo`lgan o`quvchilar va uning sababini aniqlash;
- umumta`lim maktablari 5-7 sinf o`quvchilarini estetik qarashlari, badiiy va ijodiy qobiliyatlari darajasini aniqlash;
- O`quvchilarni tasviriy san`at darslariga qiziqishlarini aniqlash hamda Tajriba-sinov davomida darsga chuqurroq olib kirish;
- Mavzu asosida rasm chizishda tasvirni aniq ifodalashda qiyinchilik tug`dirayotgan shakllarni (hayvonlar, qushlar v.b) aniqlash;
- Tajriba-sinovlarimizdan oldin mavzu bo`yicha ko`rgazmali qurollar tayyorlash;

Barchamizga ma`lumki o`quvchilar odatdagi dars soatlarida erkin harakat qiladilar. Agar ularga imtihon, yakuniy yoki bellashuv munosabati bilan topshiriqlar berilsa ular bunga jiddiy yondashadilar va yaxshi natijaga erishadilar. Sababi o`quvchi bu vaqtda iqtidorini astoydil ishga soladi.

Umumta`lim maktablarimizda har bir chorak so`ngida va yakuniy qilib bitta nazorat ishi olinadi. Shu sababli o`quv yili davomida bir soatlik dars uchun sinf bo`yicha qiziqarli va masuliyatli “yakun” topishimiz kerak. Masalan: Sinf bo`yicha eng yaxshi uchlik (5-6 ta ham bo`lishi mumkin) tanlovi. Bu tanlovda eng yaxshi chizilgan va mavzu to`g`ri ochib berilgan ishlar tanlab olinadi. Ajratib olingan ishlar egalari barcha o`quvchilar oldida taqdirlanib rag`batlantiriladi. Natijada o`quvchilar orasida faollik, raqobat va intilish hosil bo`ladi. Raqobat bor joyda o`sish bo`ladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biz Tajriba-sinovlarimizni o`quvchilarga qanchali ahamiyatli ekanligini uqtirgan holda amalga oshirdik.

Tajriba-sinov darslari asosan Chust tumani Olmos qishlog'ida joylashgan o'rta umumta'lim maktablarida olib borildi. Mazkur maktablarda, avval tasviriy san'at darslarini olib borishdagi mavjud amaliy ahvolni o'rganib chiqildi, kamchilik va yutuqlaridan kelib chiqib tajriba uchun mavzular tanlab olindi.

Tajriba - sinovlari olib borilgan maktablar
xaqida ma'lumot

1-jadval

№	Maktab	sinf	dars turi	o'qituvchisi	Manzili
1	56	5,6	amaliy	Solijonova Umida	CHust tumani Olmos qishlog'i
2	63	5, 6	amaliy	Po'latova Feruza	CHust tumani Olmos qishlog'i

Yuqorida keltirilgan maktablarning tasviriy san'at o'qituvchilari bilan suhbat o'tkazildi. O'quvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, kabinetlar va o'quvchilarni o'zlashtirish darajalari, qiziqishlarini aniqlab oldik. Jumladan, CHust tumanidagi 56, 63 umumta'lim maktablari tasviriy san'at o'qituvchilari yosh bo'lishiga qaramasdan o'quvchilar ko'rgazmalarini tashkil qilib kelishadi va fan olimpiadalarida faol qatnashib kelishganliklari ma'lum bo'ldi.

Tajriba-sinovlarimizni bekamiko'st o'tishi va kamchiliklarni taxlil qilish maqsadida Namagan davlat universiteti Tasviriy va ama'liy san'at kafedrası professor-o'qituvchilarini ham taklif etganmiz. Tajriba-sinovlarimizning birinchi bosqichini o'tkazish to'g'risidagi ma'lumot 2-jadvalda keltirilgan. Rejaga binoan sinflar va tegishli mavzular belgilab olindi.

**Tasviriy san`at darslari amaliy mashg`ulotlarida
sinflar holati haqida ma`lumot**

2-jadval

№	Mashg`ulot turi	Maktab, sinf	Dars mavzusi	Tajriba o`tkazuvchi o`qituvchi, kuzatuvchi, izlanuvchi, tadqiqotchi	Qatnashgan o`quvchilar soni	Maktab manzili
1	Suhbat	56- maktab V sinf	Animalistik janr	Alijonova Sevara, Solijonova Umida	29	Chust tumani Olmos qishlog'i
2	Amaliy mashg`ulot	56 maktab V sinf	Men sevgan hayvon	Alijonova Sevara, Solijonova Umida	29	Chust tumani Olmos qishlog'i
3	Amaliy mashg`ulot	56 maktab VI sinf	Qo`riqxona da	Alijonova Sevara, Solijonova Umida	26	Chust tumani Olmos qishlog'i
4	Suhbat	63- maktab V sinf	Animalistik janr	Alijonova Sevara, Po`latova Feruza	28	Chust tumani Olmos qishlog'i
5	Amaliy mashg`ulot	63 maktab V sinf	Men sevgan hayvon	Alijonova Sevara, Po`latova Feruza	30	Chust tumani Olmos qishlog'i
6	Amaliy mashg`ulot	63 maktab VI sinf	Qo`riqxona da	Alijonova Sevara, Po`latova Feruza	29	Chust tumani Olmos qishlog'i

Yuqorida keltirilgan mavzular bo'yicha Tajriba-sinovlar o'tkazildi va o'qituvchilarga taqdim etildi. Ular o'quvchilarning necha foizi ijobiy yoki salbiy natija berganini aniqlashdi. Kamchiliklar o'rganib chiqilgan holda huddi shu tajribani, qayta ko`rilgan mavzu asosida 63 maktabda ham sinab ko`rildi. Bu safar mavzular o'quvchilarga qisqacha tavsiyalar berilgandan so`ng e`lon qilinadi.

Chunki, shu yo`l bilan qaysi tavsiyalar bolaning tasviriy faoliyatini oshirishga ko`proq xizmat qilishini aniqlab oldik. O`quvchilar uchun ham sodda, ham tushunarli bo`lgan, o`zlashtirishning yangi metodlarini topishimiz talab qilindi.

Biz aytib o`tgan tajribalarni o`tkazishda o`qituvchining mahorati ham juda muhim ahamiyat kasb etdi. Har bir o`qituvchi yil davomida dars samaradorligini oshirishi uchun o`quvchilar e`tiborini tortib qiziqтира olishi kerak. Dars davomida o`quvchilarni ishlariga ma`suliyat bilan yondashishlari va zamonaviy ta`lim tizimidagi yangiliklardan unumli foydalanishi talab qilinadi. Shu jarayonlarni ham diqqat-e`tibor bilan kuzatib o`quvqchilarga mushkullik qilayotgan, o`zlashtirishlariga to`sqinlik qilayotgan sabablarni aniqlashi lozim. Bu esa bizga ularga qanday tavsiyalar va qanday ko`rgazmali qurollar tayyorlashimizda yordam berdi.

O`quvchilarni sifatli o`quv qurollar bilan ta`minlanishi ham ularga ijodiy turtki beradi. Shuning uchun barcha kerakli jihozlar tajribadan oldin tayyorlab qo`yildi. Ortiqcha, keraksiz jihozlar 45 daqiqali dars mobaynida o`quvchilar e`tiborini chalg`itmasligi kerak. Sababi bizni tadqiqotimizning maqsadi bolaning hali shakllanmagan qobiliyatlarini aniqlab unga turtki, tavsiya berishdan iborat.

O`quvchilar ong osti faoliyati juda murakkab bo`lib o`ta o`zgaruvchan hisoblanadi. SHuning uchun ular muayyaan bir xillikdan qochadilar yoki zerikadilar. Ularni aqliy faoliyati va qiziqishlari talab qilgan darajada o`qitish zarur, aks holda bola o`zi uchun murakkab tuyulgan tasvirlarni chizmaslikka harakat qiladi. Barcha murakkab tasvirlar o`quvchi ongiga yaxshi etib bormaganligidan kelib chiqadi. Shu sababli mavzudan oldingi animalistik janr haqidagi suhbat va ko`rgazmali qurollarning ahamiyati juda katta.

Maktab ma`muriyati va tasiriy san`at fani o`qituvchilari hamda ustozlarimizning ko`magi bilan tajriba-sinovlarimiz muvaffaqiyatli yakunlandi. O`quvchilarda ham ko`tarinki ruhiyat va tasviriy san`at faniga bo`lgan qiziqishlari ancha ortdi.

3.3. Erishilgan yutuq va kamchiliklarni taxlil qilish.

Tajriba-sinov ishlari natijalari bo'yicha quyidagi savollarga javob olinadi:

1. Maktab sharoiti (mutaxassis o'qituvchi, kabinet borligi, tabiiy sharoit).
2. O'qituvchisi haqida ma'lumot (zamon talabiga javob beradi yoki yo'q).
3. O'quvchilar haqida ma'lumot (o'zlashtirishi).
4. Yangi tavsiya etilgan darslardagi yutuqlar:
 - O'zlashtirish;
 - Tasviriy san'at narsa va anjomlaridan foydalanish;
 - Ijodkorlik ko'rsatkichlari (shaklda, rangda va kompozitsiyada);
 - erkin ijodkorligi;
 - Nazariy va amaliy ko'nikmalarni egallaganligi;

Dasturimizga binoan yuqoridagi savollarni belgilab oldik. Bu savollarga javob olishimiz bilan, bizga noma'lum bo'lgan ta'limdagi yutuqlar va kamchiliklarni aniqlab oldik. Bu borada ustozlar ko'magidan foydalandik.

Tajriba-sinov ishlari Chust tumani Olmos MFYga qarashli 56 va 63-o'rta umumta'lim maktablarining 5-6-sinf o'quvchilarida "Animalistik janr haqida suhbat. Amaliy ish", "Men sevgan hayvon" va "Qo'riqxonada" mavzularida rasm ishlash, "Tuyalar karvoni", mavzusida haykaltaroshlik kompozitsiyasi ishlandi. Maktabning boshqa sinflarini nazoratga olib eksperiment gurux bilan o'zlashtirish bo'yicha taqqoslash ishlari olib borildi.

– Olmos qishlog'i Chust tumanidagi eng katta qishloqlardan biri bo'lib, 56 va 63 – o'rta umumta'lim maktablari tabiiy jihatdan juda qulay va sodda tuzilishga ega maktablardan hisoblanadi. Maktablarda umumiy tartib intizom saqlangan. Tasviriy san'at kabinetlari mavjud bo'lib, talab darajasida jihozlangan. Barcha fanlar bo'yicha mutahassis o'qituvchilar faoliyat olib bormoqda. Jumladan, tasviriy san'at va chizmachilikdan ham. Tasviriy san'at o'qituvchisi darslarni imkoniyat darajasida talab darajasida tashkil qilib kelmoqda.

– 56 -maktabning tasviriy san'at o'qituvchisi Solijonova Umida ham 63-maktabning tasviriy san'at o'qituvchisi Po'latova Feruzalar Namangan davlat universiteti Tasviriy san'at va muhondislik grafikasi yo'nalishida tahsil olishgan.

Ma'lumotlari oliy. Mutahassislik fani bo'yicha etarlicha bilim va ko'nikmaga ega. Ixtisoslashgan sinf xonalari ham mavjud bo'lib, xona jihozlari ham talabga javob beradi. O'quvchilar e'tiborini jalb qiluvchi buklet hamda reproduksiyalarga ega.

– Tasviriy san'at fani oddiy tuyulgani bilan uni o'zlashtirish birmuncha qiyinchilik tug'diradi. Oppoq qog'ozda tasvir yarata olish uchun qobiliyat kerak bo'ladi. Bugungi kunda maktablarda tasviriy san'at darslarini o'qitishga e'tibor ancha kuchaygan. Maktablarda sinflar tizimidagi amaliy ahvolni o'rganganimizda 5-6 sinf o'quvchilarini tasviriy san'at darslariga qiziqishlari qoniqarli deb topildi. O'zlashtirishlari tasviriy san'at darslarini qanday metoddan foydalanib olib borilishiga qarab belgilandi. Sababi o'qituvchi tomonidan ko'rgazmali qurollar orqali tushuntirib, sinf doskasida amaliy tarzda bajarib ko'rsatilgan darslar o'quvchi ongiga tez etib bordi va ular berilgan topshiriqni qoniqarli yakunladilar.

– eksperiment sinfida deyarli barcha darslar samarali natija berdi. Sababi shuki, bu dars odatdagi darslardan tamomila farq qildi. Darsga kirib kelish, darsning borishi, dolzarbligi va qiziqarli bo'lishi uchun Tajriba-sinov darsimizda o'zgacha yondashish qildik. 5 sinf o'quvchilarida tashqi olamga moslashish unchalik rivojlanmaganligi bois ularni darsga qiziqtirish oson bo'lmaydi. Tajribamizdan kelib chiqib aytadigan bo'lsak xaykaltaroshlik kompozitsiyasi bo'yicha "Tuyalar karvoni" mavzusi eng samarali dars deb topildi. Bu darsda 84% ijobiy natijaga erishildi. Buning sababi biz o'quvchilarga o'zimiz tomonimizdan yasalgan tuyalar kompozitsiyasini namoyish etdik. O'quvchilar maroq bilan uni yasallishini tomosha qildilar. Shundan so'ng ularni ikkita guruhga bo'lib oldik va ikkala guruhga aloxida topshiriq berdik. Topshiriqqa binoan har bir guruh a'zosi o'zining ishlari bilan kompozitsiyani to'ldiradi. O'quvchilarning barchasiga karvondagi obrazlar bo'lib berilgan. Ikkala guruh ham etarli plastilin va A4 formatdagi oq qog'oz bilan ta'minlandi. O'quvchilar barcha sharoitlardan mamnun holda ishga kirishdilar. Guruhlar o'rtasida raqobat ham paydo bo'ldi. eng e'tiborlisi shundaki gurux bo'lib ishlayotganda sinfdagi passiv o'quvchilar ham o'z fikrlarini bildirib kompozitsiya tuzishga astoydil kirishib ketdilar. Tajriba 45 minutli darsda muvaffaqiyatli yakunlandi.

– Maktab tasviriy san’at darslarining barchasi yuqori malakali professor-o`qituvchilar tomonidan mukammal tuzib chiqilgan. O`zlashtirishdagi kamchiliklar esa o`z-o`zidan o`quvchilarni darsga bo`lgan qiziqishlarini pastligidan kelib chiqadi. SHuni hisobga olgan holda yangi mavzu tavsiyasiga “Men sevgan hayvon” mavzusini tanlab oldik. Yuqoridagi aytib o`tganimizdek maktablardagi amaliy ahvolni o`rganishga qaratilgan kuzatuvlarimiz natijasiga binoan mana shu dars bo`yicha juda ko`p kamchilikka uchradik. O`quvchilar “Men sevgan hayvon” mavzusida rasm chizishda va ularni o`xshatishda qiynalishdi. SHulardan kelib chiqib o`quvchilar oldidagi muammolarni oson va tushunarli yo`l bilan hal etish maqsadida qush va hayvonlarning yashash tarzi haqida nazariy bilimlarni berish bilan cheklanib qolmasdan, ularni tasvirlashni sodda uslublari aks etgan ko`rgazmali qurollar bilan tanishtirildi. Tajriba-sinov so`ngida o`quvchilar o`zlashtirishida sezilarli o`zgarishni ko`rishga erishdik. Ular o`zlari sevgan hayvonlarni tasvirlashda biz bergan tavsiyalar va ko`rgazmali qurollar yordamida o`z ishlarini yakuniga etkazdilar.

– O`quvchilarning ko`pchiligi rasm chizishda faqat qalam va o`chirg`ichdan foydalanishdi. Ba`zi mavzudagi rasmlarda ular boshqa anjomlarga ham muxtojlik sezishadi. Rangli qalamlar, akvarel bo`yog`i, suv idish, mo`yqalam, politra kabi kerakli o`quv qurollar bilan o`quvchilar to`liq ta`minlandi.

— O`quvchilardagi ijodkorlik xususiyatlari shakllana boshlagan, ammo uni yanada rivojlantirish uchun kuchliroq turtki kerak bo`ladi. Masalan, muayyan ijodkorlikka undovchi mavzudagi kompozitsiyalar ishlash. Hammamizga ma`lumki, bolalar bu yoshda o`zlari birorta hayvon yoki qushlarni boqishni yoqtiradilar. O`quvchilardagi ijodkorlik xissini Tajriba-sinovmiz davomida rasm chizishlarining ilk bosqichidan aniqlab oldik. Bir o`quvchi kichik hajmdagi qush va hayvonni chizishdan boshlagan bo`lsa ikkinchisi eng katta hayvon rasmini ishlashdan boshladi.

– Maktabning 5-6 sinf o`quvchilari nazariy bilimlarni yaxshi o`zlashtirgan. Garchi maktab o`quvchilari uchun kitob, risolalar kam bo`lsa ham ular mutaxassis o`qituvchilari tomonidan bilim va ko`nikmalarga ega bo`lib borganlar. Ularda

tasviriy san'atning tur va janrlari haqida tushunchalar bor. SHunday bo'lsada har bir sinfda amaliy jihatdan muammolar bor. O'quvchilarni ko'pchiligida takrorlanuvchi holat shuki, ular 45 daqiqa mobaynida ishlarini yakunlay olmay qoladilar. Ularga ishni muvaffaqiyatli yakunlashlari uchun hotirjamlik va vaqt kerak bo'ladi. Tajribadan kelib chiqib aytadigan bo'lsak o'quvchini qanchalik tez ishlashga undasak, u shunchali e'tiborsiz va betartib ishlay boshlaydi. Bu jarayonda aksincha to'g'ri tavsiya hamda bir-oz ko'mak berib yuborsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

6- sinflar o'rtasida o'tkazilgan Tajriba-sinov darslari natijalariga binoan eksperiment sinf o'quvchilari ko'rsatgan natijalari yuqoridagi jadvalda keltirilgan. Natijadan ko'rinib turibdiki eksperiment sinfi ijobiy natija ko'rsatdi. Sinf o'quvchilari asosan qoniqarli va a'lo baholar bilan baholandi. Jumladan, Abdusattarov Og'abek, Abduraximova Xurshida, Axmadjonov Azizbek, Karimjonova Sarvinoz, Tursunalieva Moxichehra, SHermatova Ruxshona va Valijonova Moxinalarning ishlari namuna sifatida sinfga namoyish etildi, o'quvchilar rag'batlantirildi.

Bundan ko'rinadiki ijobiy natijalarga, dars mashg'ulotlari mavzusi qiziqarli, o'quvchilar yoshiga mos va hayotga bog'langan bo'lishi zarur ekanligi sabali erishilganligi ma'lum bo'ladi. Shuningdek, dars turlari bo'yicha ham o'quvchilarni o'zlashtirish ko'rsatkichi o'zgaradi, buning sababi o'quvchilarni qiziqishlari, iqtidorlari va qobiliyatlari har xil bo'lganligi bois, ularning o'qish va mehnati jarayonida layoqatlari turlicha ekanligidan kelib chiqqanini ko'ramiz.

Xulosa

Olib borgan tadqiqot ishimiz davomida o`rta umumta`lim maktablari na`munaviy fan dasturlari va tasviriy san`at o`quv predmeti darsliklari hamda o`qituvchilar uchun ishlab chiqilgan o`quv-uslubiy qo`llanmalar bilan yaqindan taknishib chiqdik. Ularda animalistik janrda rasm ishlash mashg`ulotlariga ajratilgan o`quv soatlari juda ham kam ajratilganligini guvohi bo`ldik. Jumladan, O`rta umumta`lim maktablarining boshlang`ich sinflarida o`quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda animalistik janr haqida suhbat darslari rejalashtirilmagan. Chunki, boshlang`ich sinf o`quvchisi uchun 45 daqiqa davomida biror bir asar yoki davrni taxlil qilish zerikarli bo`ladi va ular uchun murakkab hisoblanadi.

Asosan 4 sinfdan boshlab tasviriy san`at darslarida san`atni idrok qilish mashg`ulotlari boshlanadi. Jumladan, 4 sinfning 1-choragida 1-soatida “Tasviriy san`at turlari” rangtasvir mavzusida suhbat darsi o`tkaziladi. Unda asosan o`quvchilar tasviriy san`atning rangtasvir janri bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo`ladilar. Shu bilan 4 sinfdagi tasviriy san`atni idrok qilish mashg`ulotlariga yakun yasaladi.

Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki, 5 sinfga qadar o`quvchi-yoshlar tasviriy san`at asarlari bilan juda ham kam tanishish imkoniyatiga ega bo`ladilar. Natijada o`quvchi-yoshlar tasviriy san`atning nazariy asoslari yuzasidan kerakli bilimlarni egallamasdan qolib ketadilar. Bizningcha esa bu kamlikchilikni bartaraf qilish orqali tasviriy san`at darslari samaradorligini oshirish mumkin. Buni rivojlangan davlatlar tajribalaridan ham ko`rib chiqish mumkin. Evropadan Gollandiyada, Osiyodan YAponiyada ham birinchi sinfdan boshlab o`n birinchi sinfga qadar haftasiga ikki soatdan tasviriy san`at darslari o`tiladi hamda boshlang`ich sinflardan boshlab o`quvchi-yoshlar san`at asarlari bilan yaqindan tanishtiriladi. Ularni idrok qilishni o`rganadilar.

5 sinfning 1-choragi 13-soatida “Animalistik janr haqida suhbat. Amaliy mashg`ulot”, 14-soatida “Men sevgan hayvon” mavzusida rasm ishlash

mashg'ulotlari rejalashtirilgan. Ushbu mavzularga oid badiiy asarlarni ro'yxati berilmagan, badiiy asar taxlili esa juda ham uchraydi. borlari esa to'liq ilmiy taxlil qilinmagan. Qolaversa, 5 sinfda 4 ta chorak bo'lgani holda, undan atiga ikkitasidagina biz tanlagan mavzuga oid mashg'ulotlar ko'zda tutilgan xolos.

6 sinfning 2-choragi 12-soatida "Tuyalar karvoni" mavzusida haykaltaroshlik mashg'uloti belgilangan. Biroq, shu bilan qush va hayvonlar tasvirini ishlash mashg'ulotlari tugaydi. Nahotki, oltinchi sinfda bir soat animalistik janrda haykal ishlash bilan cheklanib qolinsa? Boshlang'ich sinfda o'quvchilarni yosh desak, oltinchi sinfda nima uchun o'quvchilarga animalistik janrda badiiy asarni taxlil qilib berish yoki ram chizish mumkin bo'lmasa!

O'rta umumta'lim maktablarinig ettinchi sinfidan keyin tasviriy san'at darslari o'tilmaydi. Demak, o'quvchilar uchun animalistik janrdagi badiiy asarlarni o'rganish uchun berilgan oxirgi imkoniyat hisoblanadi. SHundoq ham 7 sinfda biror soat animalistik janrga ajratilmagan.

Olib borgan tadqiqotimiz yakuniga ko'ra quyidagi taklif va mulohazalarni tayyorladik:

- o'rta umumta'lim maktablari tasviriy san'at fani na'munaviy dasturlariga jiddiy o'zgartirishlar kiritish kerak;
- boshlang'ich sinfdan boshlab 9 sinfga qadar haftasiga ikki soatdan tasviriy san'at darslari o'qitilsa maqsadga muvofiq;
- boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at darsini mutaxasis o'qituvchi o'tishi kerak;
- o'quvchi-yoshlarni tasviriy san'at mashg'ulotlarining nazariy asoslari bilan yaqindan tanishtirish lozim;
- o'quvchilarni badiiy asarlarni o'qiy olish darajasida tarbiyalash lozim;
- qush va hayvonlarni chizish uslublari ko'rsatilgan ko'rgazmali qurollar tayyorlab o'qituvchilarga etkazish kerak;
- O'zbekiston rassomlarining qush va hayvonlar haqidagi badiiy asarlari to'plamini tayyorlab o'quvchi-yoshlarga tushunarli tilda taxlil qilib berish maqsadga muvofiq sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Sh.M.Mirziyoyev. 2017–2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning harakatlar strategii. T.; “G`ofur G`ulom” nashriyoti. 2017
- Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak “Xalq so`zi” gazetasi, 2017 yil. 16 yanvar
- O`zbekiston Respublikasi “Ta`lim to`g`risida”gi qonuni. T.; 1997.
- I.A.Karimov. Asosiy vazifamiz vatanimiz taraqqiyotini va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.; 2010 y. 29 yanvar
- I.A.Karimov. Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch. T.; “Ma`naviyat”, 2010.
- I.A.Karimov. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 20 yilligiga bag`ishlangan marosimidagi nutqi. \ “Xalq so`zi” gazetasi. 2012.
- Umumlashtirilgan davlat ta`lim standarti. T.; 2010.
- O`quvchi shaxsini rivojlantirishga yo`naltirilgan ta`lim (Umumta`lim maktablari direktorlarining o`quv ishlari bo`yicha o`rinbosarlari uchun o`quv modullari) . 3-modul. T.; 2012.
- Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T.; 1998.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlar

- B.Oripov. Tasviriy san`atni va uni o`qitish metodikasi. T.; 2005.
- R.Hasanov. Amaliy bezak san`ati mashg`ulotlari metodikasi. O`quv qo`llanma. – T.; 2003.
- R.Hasanov. Tasviriy san`atdan Davlat ta`lim standartlarini amaliyotga joriy etish. – T.; 2000.
- N.Oydinov. “Rassom o`qituvchilar tayyorlash muammolari”. - T.; 1997.
- Umumiy o`rta ta`lim maktablarida tasviriy san`t konsepsiyasi. T.; 1995.
- B.Boymetov. N.Tolipov. “Maktabda tasviriy san`at to`garagi. T.; 1995.
- R.Hasanov. Maktabda tasviriy san`at mashg`ulotlarini takomillashtirish yo`lida” T.; 1986.

- R.Hasanov. Tasviriy san`at va badiiy mexnat. Birinchi sinf uchun darslik-T.; 1998.
- R.Hasanov. Beshinchi sinfda tasviriy san`at darslari T.; 1997.
- D.N. Kardovskiy. Vospominaniya, stat'i, pis'ma. M.; 1960.
- R. Xasanov. Tasviriy san`atdan dars ishlanmalari. 6- sinf. T.; 2015.
- T. Qo`ziev, S. Abdirasilov, O`. Nurtoev, A. Sulaymonov. Tasviriy san`at. 5-sinf uchun darslik. T.; 2012. 69-72-bb.
- T. Qo`ziev, S. Abdirasilov, O`. Nortoev, A. Sulaymonov. Tasviriy san`at 5-sinf uchun darslik. T.; 2012.
- R. Xasanov. Tasviriy san`atdan dars ishlanmalari. 6-sinf uchun. O`qituvchilar va talabalar uchun uslubiy ko`rsatma. T.; 2015.

Fanga oid internet saxifalari

<http://artclassic.edu.ru/>

<http://artclassic.edu.ru/>

<http://artschool.agava.ru/>

<http://www.manus.baikal.ru/rus/es21.ntm>

http://www.rubricom.com/artp_1.asp

<http://www.arthistoru.ru/>

<http://art.rin.ru/>

<http://visaginart.narod.ru/visaginart.htm>

<http://aivazovsky.narod.ru/>

<http://www.philosophy.ru/library/byuchkov/hud-kult.html>